

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo'l yozma huquqida

UDK: 809.51-08

BBK:81.2-3

A-90

AHMEDOVA SAYYORAHON AKRAMDJANOVNA

**Xitoy dori yo`riqnomalarida uchraydigan farmakologik terminlarning
leksik-semantik tahlili**

5A 120102 – Lingvistika

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar: f.f. dots. Hashimova Sabohat

Toshkent-2013

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
I bob.	Xitoycha dori yo`riqnomalarini tarjima qilish tajribasi va dori nomlarining leksik-semantik tahlili.....	16
1.	Xitoyda ishlab chiqarilgan dori yo`riqnomalarini o`zbek tiliga o`girish tajribasidan.....	16
2.	Xitoy dori nomlarini leksik-semantik tahlili.....	20
3.	Xitoy dorilarining tarkibiy qismida uchraydigan so`zlarning leksik-semantik tahlili.....	22
	Birinchi bob xulosasi.....	28
II bob.	Xitoy dori yo`riqnomalarida ko`rinish, asosiy vazifasi va nojo`ya ta`siri bandlari bilan bog`liq terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjima qilish masalalari.....	30
1.	Xitoy dori yo`riqnomalarida dorining ko`rinish va hususiyatini bildiradigan terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjimasi.....	30
2.	Xitoycha dori yo`riqnomalarida 功能主治 <i>gōngnéngzhǔzhì</i> bandida keladigan terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjima qilish hususiyatlari.....	35
3.	Xitoy dori yo`riqnomalarida “nojo`ya ta`siri”, “ehtiyodkorlik choralari”, “qadoqlanishi”, “yaroqlilik muddati” hamda “saqlanishi” bandlarida keladigan terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjimasi	40
	Ikkinchi bob xulosasi.....	51
III bob.	Choyning xitoy farmakologiyasidagi o`rni va choy nomlarini leksik-semantik tahlili.....	55
1.	Xitoy farmakologiyasi va choyning undagi o`rni.....	55
2.	Xitoy tilida choy va choy turlarini anglatadigan so`zlar –farmakalogik termin sifatida.....	58
3.	Xitoy “qizil” choyi nomlari bilan bog`liq terminlarning leksik-semantik tahlili.....	62
	Uchinchi bob xulosasi.....	65
	Xulosa.....	68
	Ilova.....	72
	Foydalangan adabiyotlar ro`yhati.....	76

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqilligining yigirma yilligi arafasida shu kunga qadar erishilgan yutuqlarni sarhisob qilishga qaratilgan “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”¹ deb nomlangan yig`ilishda Prezidentimiz Islom Karimov vatanimiz kelajagi bo`lmish yosh avlodning ta`lim olish masalasiga ham alohida to`xtalib o`tdi. Bundan tashqari mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Prezidentimiz tashabbuslari ostida yurtimizda xorijiy tillarni o`rganish va o`rgatishga katta ahamiyat berib kelingan. Bugun jahon hamjamiyatida o`ziga munosib o`rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlik va hamkorlikda o`z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilish ahamiyatini baholashning hojati yoqdir.²

Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. O`zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o`rtasidagi aloqalarning rivojlanishida do`stlik, hamkorlik hamda sheriklik munosabatlari to`g`risidagi davlatlararo shartnomaning imzolanganligi muhim omil bo`lib hizmat qilib kelmoqda, jumladan dori – darmon sohasi ham bundan mustasno emas. Xitoy dorilariga ehtiyoj ortib borgan sari ularni tarjimasiga alohida etibor qaratish lozim, xitoy tili dori – darmon sohasidagi maxsus leksikani, terminlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan o`rganish talabi tug`ilmoqda. Binobarin, xitoy tili dori – darmon sohasidagi terminlar yuzasidan hali tilshunoslikda chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmagan va bu yo`nalishda ishlangan lug`atlar ham mavjud emas. Mazkur magistrlik dissertasiyasi xitoycha dori yo`riqnomalarida uchraydigan hamda xitoy choy nomlari bilan bog`liq bo`lgan terminlarni tarjima qilish bilan bir qatorda ularni leksik-semantik tahlil qilish masalalariga bag`ishlangan.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mazkur magistrlik dissertasiyasidan ko`zlangan asosiy maqsad xitoycha dori yo`riqnomalarida uchraydigan dori – darmon sohasiga oid terminlarni va choy turlarini anglatadigan so`zlarni alohida

¹ 2010 yil mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustivor yo`nalishlarga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruza.

² Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., 1997. – B.185

terminologik tizim sifatida o`rganishga qaratilgan. Bundan tashqari o`z oldiga qo`ygan bir necha ustuvor vazifalarni bajarishga harakat qilindi:

- xitoyda ishlab chiqarilgan dori ko`rsatmalarining o`zbek tiliga tarjima qilish masalalari ko`rildi;
- dori nomlarini tarjima qilish hususiyatlari ishlab chiqildi;
- dorilarning tarkibiy qismida uchragan atamalar o`rganildi;
- dorining ko`rinish va hususiyatini bildiradigan so`zlar tarjimasi ko`rib chiqildi;
- dorining asosiy funksiyasi tarjimasi bilan bog`liq masalalar mohiyati ochib berildi;
- dori yo`riqnomalarida “nojo`ya ta`siri”, “ehtiyodkorlik choralari”, “qadoqlanishi”, “yaroqlilik muddati” hamda “saqlanishi” bandlarida keladigan terminlar leksik-semantik tahlil qilindi;
- xitoy tilida choy va choy turlarini anglatadigan so`zlar farmakologik termin sifatida o`rganildi.

**Tadqiqot ob`ekti va predmetining belgilanishi.** Ishning ob`ekti qilib xitoy dori yo`riqnomalarida uchraydigan so`zlar farmakologik termin sifatida olindi. Ishning predmeti farmakologik terminlarning leksik-semantik xususiyatlarini yoritish deb belgilandi.

Ishning manbasi. Magistrlik dissertatsiyasiga manba sifatida bir necha xitoyda ishlab chiqarilgan dorilarning yo`riqnomalari olindi : 《白灵片》 *Báilíngpiàn*, 《虫草菌丝体》 *Chóngcǎojiūnsītǐ*, 《盐酸氮芥酊》 *Yánsuāndǎnjiédīng*, 《正天丸》 *Zhèngtiānwán*, 《风油精》 *Fēngyóujīng*, 《百肤康》 *Bǎifūkāng*。 Bundan tashqari 中国传统医药 (xitoy an'anaviy tabobati va dorishunosligi) (Pekin, 2006) kitobidan foydalanildi.

**Taqqiqotda qo`llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.** Ishni o`rganish davomida to`plangan materiallar zamonaviy tilshunosligida keng ko`lamda qo`llanib kelinayotgan tavsifiy, tahliliy, tarjima hamda taqqoslash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, xitoyda ishlab chiqarilgan dori yo'riqnomalarida uchraydigan hamda choy nomlari bilan bog'liq bo'lgan so'zlarning semantik jihatlari, leksik xususiyatlari, ularning farmakologik termin sifatida ma'no va tarjimalari tahlil etildi. Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati sifatida materiallaridan xitoy tili leksikologiyasi, tarjimashunoslikga oid maxsus fanlarda, xitoy tiliga oid o'quv qo'llanmalar, lug'atlarda qolaversa farmasevtlar uchun keng foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Birinchi marta xitoy dori yo'riqnomalari asosida xitoy farmakologiyasi bilan bog'liq so'zlar tilshunoslikda farmakologik termin sifatida o'rganildi. Ularning leksik-semantik tahlili amalga oshirildi. Xitoy choylari shifobaxsh ichimlik sifatida choy va choy nomlarini anglatuvchi so'zlar leksik-semantik tahlil qilindi.

Mazkur ishni amalga oshirishda tilshunoslik fanining muhim bo'limlaridan bo'lmish so'z yasalihi hamda terminologiya bilan yaqindan tanishib o'tilishi lozim va xitoy tilidagi farmakologik terminlarni tarjima qilishda bevosita ularga murojat qilishga to'g'ri keladi.

Tilning grammatik hususiyatlaridan kelib chiqqan holda so'z yasalihi barcha tillarda turli xil usullarda amalga oshiriladi. Jumladan xitoy tilida so'z yasalihi kompozitsiya, affiksatsiya, abbreviatsiya, boshqa tillardan o'zlashtirish kabi usullari mavjud. Affiksatsiya, ya'ni qo'shimcha qo'shish orqali yasaladigan usul nisbatan kamroq uchraydi. Xitoy tilida asosan ot, fe'l, sifat so'z turkumlariga mansub bo'lgan so'zlar yasaladi va ular quyidagi besh xil grammatik komponentlarning o'zaro qo'shilishi natijasida amalga oshiriladi:

- I. Atributiv model – bunda birinchi component ikkinchi componentni aniqlab keladi hamda ular o'rtasida aniqlovchi-aniqlanmish munosabatlari paydo bo'ladi. Ushbu model yordamida ot so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlar yasaladi. Masalan, 赤芍 *chìsháo* – “och qizil sallagul”

- II. Kopulyativ model – bunda komponentlar o`zaro teng huquqli bo`ladi va bu modelda asosan sinonim, antonim, uyushiq so`zlar ishtirok etadi. Masalan: 增加 *zēngjiā* – “oshirmoq, orttirmoq, kuchaytirmoq”.
- III. Fe'l-ob'ektli model – birinchi ish-harakatni ifodalovchi komponent ikkinchi ot so`z turkumiga mansub bo`lgan komponentga, ya'ni ob'ektga qaratilgan. Bu model orqali ot, fe'l so`z turkumiga mansub so`zlar hosil bo`ladi. Masalan: 包装 *bāozhuāng* – “qadoqlash”.
- IV. Fe'l-natijaviy model – bunda birinchi komponent ish-harakatni ikkinchi komponent esa uni natijasini ifodalaydi. Bu modelda faqat fe'l so`z turkumiga oid so`zlar yasaladi. M-n: 改善 *gǎishàn* – “yaxshi tomonga o`zgarish”.
- V. Sub'ekt-kesimli model – bunda birinchi komponent sub'ektni ikkinchi komponent uni harakatini yoki holatini bildiradi. Bu model yordamida ot, sifat va fe'lga mansub so`zlar yasaladi.<sup>3</sup> Masalan: 光敏 *guāngmǐn* – “yorug`likka sezuvchanlik”.

Ushbu modellarning barchasi xitoy tilida farmokologik terminlarni yasallashda muhim omil bo`lib hizmat qiladi.

Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatigan iborat. Har bir bob o`z mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda ichki qismlarga bo`lingan.

Birinchi bob – “Xitoycha dori yo`riqnomalarini tarjima qilish tajribasi va dori nomlarining leksik-semantik tahlili” deb nomlanib, mazmuniga ko`ra uch bo`limni o`z ichiga oladi: 1. “Xitoyda ishlab chiqarilgan dori yo`riqnomalarini o`zbek tiliga o`girish tajribasidan”, unda xitoy dori yo`riqnomalari haqida umumiy tushunchalar hamda barcha bandlar qanday nomlanishi yoritilgan; 2. “Xitoy dori nomlarini leksik-semantik tahlili” ushbu bo`limda esa xitoy dori

³ Семенов А. Л. Лексика китайского языка. – Москва., 2000. – с.39.

nomlari tarjimasiga to'xtalib, ularga o'zbek tilida munosib ekvivalent topish masalasi ko'riladi; 3. "Xitoy dorilarining tarkibiy qismida uchraydigan so'zlarning leksik-semantik tahlili", bunda xitoyda ishlab chiqarilgan dorilarning tarkibiy qismi nimalardan iborat ekanligi va ularni tarjima qilishda uchraydigan muammolar keltirilgan.

Ikkinchi bob – "Xitoy dori yo'riqnomalarida ko'rinish, asosiy vazifasi va nojo'ya ta'siri bandlari bilan bog'liq terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjima qilish masalalari" deb atalib, o'z navbatida mohiyatiga asoslangan holda uch bo'limdan tashkil topgan : 1. "Xitoy dori yo'riqnomalarida dorining ko'rinish va xususiyatini bildiradigan terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjimasi", bu erda asosan o'rganilayotgan dorining tashqi ko'rinishi, hidi, rangi va boshqa belgilarini tarjima qilish hamda uning ahamiyati yoritilgan; 2 "Xitoycha dori yo'riqnomalarida 功能主治 *gōngnéngzhǔzhì* bandida keladigan terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjima qilish xususiyatlari", ushbu bo'limda esa tarjima qilinayotgan dorining asosiy funksiyalarini tarjima qilishga qay tarzda yondoshishga to'xtalib o'tilgan; 3. "Xitoy dori yo'riqnomalarida "nojo'ya ta'siri", "ehtiyodkorlik choralari", "qadoqlanishi", "yaroqlilik muddati" hamda "saqlanishi" bandlarida keladigan terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjimasi" deb atalib, unda dori qabul qilgandan so'ng sodir bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy holatlar, shu holatlarni oldini olish uchun ehtiyotkorlik choralari, qanday saqlanishi, dori qanday o'ramdaligi hamda yaroqlilik muddatini ifodalashda hizmat qilgan so'zlar tahlil qilindi.

Uchinchi bob – "Choyning xitoy farmakologiyasidagi o'rni va choy nomlarini leksik-semantik tahlili" deb nomlanib, u ham mazmunidan kelib chiqqan holda uch bo'limdan tashkil topgan: 1. "Xitoy farmakologiyasi va choyning undagi o'rni", bunda xitoyning an'anaviy dorishunosligi hamda choyning shifobaxsh xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan; 2. "Xitoy tilida choy va choy turlarini anglatadigan so'zlar –farmakalogik termin sifatida", bu qismda choy hamda ko'k choy nomlarini anglatadigan so'zlar leksik-semantik tahlil qilindi va bu nomlarni kelib chiqish tarixi o'rganildi; 3. "Xitoy qizil choyi nomlari bilan

bogʻliq terminlarning leksik-semantik tahlil” deb nomlanuvchi bu boʻlimda qizil choyni oʻziga xos jihatlari, shifobaxsh xususiyatlari oʻrganilgan holda ularning nomlari leksik-semantik tahlil qilindi.

Terminologiyaga toʻxtalishimizning boisi shuki, dori yoʻriqnomalarini tarjima qilish mobaynida nafaqat farmotsevtik terminlar, balki biologik, meditsinaga oid boʻlgan terminlar ham uchradi. Xitoy tilidagi terminlar oʻzbek tiliga tarjima qilinayotganda qanday muammolarga uchrashi va ularning oʻzbek tilidagi ekvivalentini toʻgʻri berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Termin – ilm-fan va boshqa muayyan sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi boʻlgan soʻz yoki soʻz birikmasidir. Uning qoʻllanilish doirasi shu soha bilan chegaralangan, lekin umumisteʼmoldagi soʻzlar maʼlum bir sohaga oid tushunchani ifodalovchi soʻz sifatida ishlatilishi, terminga aylanishi mumkin. Bunday hollarda u soʻz dastlabki maʼnosi bilan umumisteʼmoldagi leksikaga, maxsus (terminologik) maʼnosi bilan esa terminologik (chegaralangan) leksikaga oid boʻladi.⁴ Terminlar bir maʼnoli, tizimga solingan boʻlishi va emotsionallikka ega boʻlmasligi kabi belgilari bilan umumisteʼmoldagi soʻzlardan farq qiladi.

Xuddi shu singari xitoy tilida ham terminlar umumisteʼmol soʻzlaridan ajratiladi, bu haqida Frolova biologik terminlar misolida juda toʻliq maʼlumotlar bergan, uning yozishicha, xitoy tili terminlarining uchta oʻziga xos xarakteri mavjud : semantik (bir maʼnolilik, aniqlilik, termin sifatida bir xil tushunish, terminning stilistik betarafligi), sintaktik (tizimga solinganlik) va pragmatik (terminning qoʻllanilishga qulayligi, darajasi, qisqa va loʻndaligi). Xitoy tili farmotsevtik va biologik terminlar tizimining boyishida murakkab terminlar katta ahamiyatga ega, bularga murakkab soʻzdan tarkib topgan atamalar, soʻz qoʻshilishidan, qoʻshimcha qoʻshish orqali va qisqartma soʻzlardan tuzilgan atamalar kiradi.⁵ Masalan: 维生素 *wéishēngsù* – vitamin, 碘酒 *diǎnjiǔ* – yod va boshqalar.

⁴ Ҳожиёв А., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 1980. – б. 129.

⁵ Фролова О. П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. – Н., 1981. – с. 32 – 36

Soʻz yasalihi va terminlardan tashqari tarjimalar natijasida juda koʻp qoʻllaniladigan tushuncha – bu soʻz birikmasidir. Soʻz birikmasini hosil qiluvchi komponentlar (soʻzlar) leksik mustaqilligini saqlaydi va ular oʻrtasida sintaktik aloqa ham boʻladi. Soʻz birikmasining qoʻshma soʻzdan farqi shundaki, qoʻshma soʻzning komponentlari morfema, soʻz birikmasining komponentlari esa soʻz boʻladi.⁶ Bunday soʻz birikmasi hamda qoʻshma soʻz kabi til birliklari xitoy tilida ham katta qiyinchiliklar bilan farqlanadi. Mana shu soʻz birikmasi va qoʻshma soʻzni bir-biridan ajratishning bir qancha koʻrinishlari haqida Gorelov qisqacha toʻxtalib oʻtgan.⁷ Mazkur ishni amalga oshirish jarayonida farmotsevtik atamalarni ifoda etishda soʻz birikmasidan keng qoʻllanildi.

Xitoy tabobati va dorishunosligi xitoy madaniyati xazinalaridan biri hisoblanib, xitoy millatining rivoji va ravnaqiga katta hissa qoʻshgan. U dunyo tabobati va dorishunosligi taraqqiyotiga asos boʻlib xizmat qildi. Xitoy tabobati va dorishunosligi oʻziga xos nazariya va tizimga ega boʻlib, unda davolashning turli hil usullari mavjud, masalan, xitoy dorishunosligi yordamida, akupunktura (igna sanchib davolash), bioaktiv nuqtalarni uqalash, tsigun(气功 *qìgōng*)⁸ va boshqa usullar, bular ham oʻziga xos usullardan hisoblanadi.

Uzoq tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, xitoy millatining avlodu-ajdodlari mehnat va hayot mobaynida ayrim oʻsimliklar, hayvonlar va minerallardan kasallikni davolashda foydalanish mumkinligini oʻylab topishgan, yana odam tanasining biror qismiga zarar etganda tananing boshqa bir qismida ogʻriq hosil qilish orqali uni bartaraf qilish mumkinligini juda koʻp martalik amaliyotlarda sinab koʻrib, xitoy dorishunosligi va akupunktura bilan davolash usullari yaratilgan.

⁶ Хожиев А., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 1980. б. 173

⁷ Горелов В. И. Лексикология китайского языка. – М., 1984. с. 11

⁸ “气功” — xitoyning qadimiy oʻziga xos boʻlgan jismoniy mashq usullaridan biri. U bilan shugʻullanuvchi shaxs hayoli hamda nafas olishi bir maromda boʻlishini mashq qiladi, sogʻlomlikka, kasallikni oldini olishga hamda uzoq umr koʻrishga erishiladi.

Janguo davriga kelib, Xitoyda “黄帝内经” “*huángdì nèijīng*”⁹ deb nomlangan tibbiy asar yaratildi. Bu asarda eng avvalgi xitoy tabobatidagi mo’jizakor “五行” “*wǔxíng*”¹⁰ ilmidagi inson va tabiat o’rtasidagi uzviy bog’liqlik hamda odam tanasidagi ichki a’zolarining o’zaro bog’liqliklari haqida ma’lumotlar berilgan, kasalliklarga tashxis qo’yish va davolash usullari ham keltirilgan bo’lib, bu xitoy tabobati nazariyasi asosi bo’lib hizmat qildi. Oradan 400 yil, Dong Xanning katta tabibi Djang Djung zin (张仲景) “伤寒杂病论” “*shānghán zábing lùn*”¹¹ asarini yozdi, bu asar mazmuni ham dastlabki xitoy tabobatidagi “辩证论及” “*biànzhèng lùnjí*”¹² g’oyalarini tasdiqlaydi.

Qadimgi Xitoyda yana bir qancha mashhur tabiblar yashab ijod etgan, masalan, Djanguo davridagi Byan tsue (扁鹊) hamda Dung Xan davridagi Xuatuo (华佗) shular jumlasidandir. Byan tsue (扁鹊) Djanguo davrining boshlarida yashab o’tgan tabib, asl ismi Tsin Yuejen (秦越人) bo’lib, viloyatlarda sayohat qilib, odamlar orasida yurib, aholining orasida ko’p uchrab turadigan kasallarni davolagan. U to’rt xil tekshiruv usulini “ko’rib, hidlab, so’rab, kesib tekshirish”ni yaratgan. Bundan tashqari u ayollar, bolalar hamda beshta sezgi organlarida uchraydigan kasalliklarni mukammal o’zlashtirgan. Xuatuo (华佗) esa, Dong Xan davri oxirlarida yashab o’tgan mashhur tabib. U terapiya, xirurgiya, ginekologiya va pediatriya sohalarini mukammal o’rgangan. Tanani og’riqsizlantiruvchi (narkotik) moddalar “麻沸散” “*máfěisàn*” hamda jismoniy davolash usuli “besh hayvon mashqi”ni kashf qilgan. Bu ikkala tabibning tibbiy mahorati yuksakligi bir hil darajada bo’lgan.

⁹ “黄帝内经” — Chjanguo davrining (era.av. 475—221 y) oxirgi yillarida yozilgan tabobatga doir asar. Butun kitob umumiy ikki bob, 18 bog’ va 162 bo’limdan iborat.

¹⁰ “五行” — Besh unsur, qadimgi Xitoy ilmi bo’yicha tabiatning asosiy elementlari: metall, daraxt, suv, olov va er.

¹¹ “伤寒杂病论” — DongXan davrida Chjan Chjongtszin tomonidan yozilgan tibbiyotga oid kitob. Butun kitob 16 bog’, jarohatlar va turli kasalliklar nomli ikki bo’limdan iborat. 300 dan ortiq dori retsepti va 200 dan ortiq dorivor o’simliklar turi yozilgan.

¹² “辩证论及” — Xitoy tabobatida kasallikning kelib chiqish sabablari, tashqi alomatlari, puls holati va boshqa narsalarga asoslanadi hamda xitoy tabobati nazariyasiga umumiy tahlil, mulohaza yurutish ham birikadi va shu yo’sinda davolash ishlari olib boriladi.

Ular juda ko'p insonlarning og'ir kasalliklarini davolab, xalq orasida “mo'jiza yaratuvchi tabib” nomini olganlar.

Keyingi ming yillikdan ortiq vaqt mobaynida xitoy tabobati nazariyasi va amaliyoti qadamma-qadam rivojlanib bordi, yangidan-yangi tabiblar hamda tibbiy asarlar tinimsiz yaratildi, birgina tarixda yozib qoldirilgan xitoy tabobati va dorishunoslikka oid asarlarni oladigan bo'lsak, ularning 13000 dan ortiq turi mavjud va hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan.

Xitoy tabobatida kasalliklarga tashxis qo'yishning to'rt birlamchi usuli mavjud bo'lib, bu “ko'rib, hidlab, so'rab, kesib” tekshirishdir. Xitoy tabobatida kasalni tekshirganda uning yuz rangini, bemordan chiqayotgan tovushni eshitib, kasallik holatini so'rab-surushtirib, bemorning pulsini tekshirib, barcha alomatlarni umumlashtirgan holda tashxis qo'yiladi. Kasallik qanday o'tganligini sinchkovlik bilan farqlab (yana vaqti va tabiiy holatini qo'shgan holda), undan so'nggina kasallikni davolashni muxokama qilish mumkin, eng oxirida bemorga dorilar retsepti beriladi, mana shular “辩证论及” “*biànzhèng lùnjí*” deyiladi, yana bemor tekshirish jarayoni-deb ham yuritiladi.

Tashxislash va davolash g'oyasi xitoy tabobatining asosiy nazariyasi bo'lib, juda boy mazmunga ega. Tashxislash va davolashdan maqsad bu bemor holatini faqat vaqtinchalik engillashtirish emas, unda asosiy e'tibor insonning butun borlig'i hamda inson tanasining issiqlik va sovuqlik muttanosibligiga qaratiladi. Xitoy tabobatida aytilishicha, mahalliy kasallik butun tanaga ta'sir qilishi mumkin, shu orqali butun tanada muammo tug'iladi; yana xitoy tabobatida aytilishicha, odam tanasining ichki qismidagi kasallik tananing tashqi qismiga ta'sir qilishi mumkin, tashqi qismidagi kasallik ham ichki qismlarga tarqalishi mumkin. Xitoy tabobatining bunday odam tanasi haqidagi fikrlari 阴 *yīn* va 阳 *yáng* hamda 五行 *wǔxíng* ilmida juda batafsil ifodalangan.

Xitoyda 阴 *yīn* va 阳 *yáng* ilmi juda qadimgi falsafiy qarashlardan biri bo'lib, bu ilm er yuzidagi barcha narsalarning ikki qorong'u va yorug' tomoni bo'ladi degan fikrni ilgari suradi, misol uchun er 阴 *yīn* bo'lsa, osmon 阳 *yáng*;

ayol 阴 *yīn* bo'lsa, erkak 阳 *yáng*; odamning old tomoni 阴 *yīn* bo'lsa, orqa tomoni 阳 *yáng*; tananing ichki qismi 阴 *yīn* bo'lsa, tashqi ko'rinishi 阳 *yáng*; ichki a'zolaridagi “脏” *zāng*¹³ 阴 *yīn* bo'lsa, “腑” *fǔ*¹⁴ 阳 *yáng* va boshqalar.

Xitoy tabobatida yana ta'kidlanadiki, odamdagi issiqlik va sovuqlik muttanosib holatda bo'lgan vaqtda odam sog'lom hisoblanadi, agar issiqlik va sovuqlik muttanosibligi buzilsa, odam kasal bo'ladi. Xitoy tabobatida kasal tekshirayotganda eng avvalo bemorning issiqligi kuchli sovuqligi sustmi yoki aksimi aniqlab olib, undan so'nggina davolash usullarini belgilash mumkin. Issiqligi kuchlilar isitmalashga moyil bo'ladi, shifokor bemorga tanani sovutuvchi dorilardan berishi lozim; sovuqligi kuchlilar sovuqtotishga moyil bo'ladi, bunday bemorlarga isituvchi dorilar berish kerak. Bu ilmni o'rganishdan maqsad bemor tanasidagi issiqlik va sovuqlikni mutanosib holatga keltirib, har qanday kasalliklarni oldini olishdan iborat.

Misol uchun bemor shamollagan bo'lsa, 阴阳 *yīn yáng* ilmiga ko'ra shifokor bu shamollash qaysi turga isitmalashmi yoki sovuqtotishmi aniqlashi lozim. Agar bemorning isitmasi chiqib, sovuqdan qo'rqa, boshi og'risa, burni oqib, chanqamasa, bu turdagi shamollash sovuqtotish kasalligiga mansub. Bunda shifokor darhol bemorga qo'shimcha issiqliklar berishi lozim, issiqlikni ko'taruvchi dorilardan, ya'ni *tszintsze*, pasternak urug'i kabilardan berish mumkin. Agarda bemorning isitmasi juda baland bo'lsa, ko'p terlasa, boshi og'risa, burni oqmasdan chanqasa, bu issiqlik kasalliklarining alomatlaridir. Bunda shifokor bemorga *inchyao*, banlangen kabi sovuqlikni ko'taruvchi dorilardan bersa, sovuqligi ko'tariladi. Katta tajriba hamda yuqoridagi mahoratlarga ega bo'lgan shifokor tashxis qo'yish va davolashda xatoliklarga yo'l qo'ymaydi.

Xitoy falsafasida daraxt, olov, er, metall va suv 五行 *wǔxíng* deb ataladi, 行 *xíng* harakatning o'zgarishini bildiradi. Qadimgi faylasuflarning fikricha,

¹³ “脏”ga beshta ichki a'zolar yurak, jigar, taloq, o'pka, buyrak kiradi.

¹⁴ “腑”ga oltita ichki a'zolar o't puffagi, oshqozon, yo'g'on ichak, ingichka ichak, qovuq va santszyao (bu xitoy tabobatida tilning quyi qismidagi ko'krak bo'shlig'idan to qorin bo'shlig'igacha bo'lgan qism) kiradi.

beshtan unsur o'zaro bir-biri bilan bog'liq, beshtan unsur o'zaro bir birini yaratishi, ya'ni daraxt olovni, olov erni, er metallni, metall suvni, suv aylanib kelib daraxtni yarata oladi. Besh unsur o'zaro bir-birini engishi: daraxt erni, er suvni, suv olovni, olov metallni, metall daraxtni engadi. Besh unsur o'rtasidagi o'zaro yaratilish va engish er yuzidagi 10 ming mavjudot rivojini asrab, mutanosiblikda ushlab turadi.

Xitoy tabobati besh unurni odam organizmi bilan birlashtirib, tananing ichki a'zolaridan hisoblanmish 脏 *zāng* ni markaz qilib oladi: jigar daraxtga, yurak olovga, taloq erga, o'pka metallga, buyrak suvga mansub. Besh unsur o'rtasidagi o'zaro yaratilish va engish nazariyasiga asoslanib, yuqoridagi beshta ichki a'zolar o'rtasida ham o'zaro yaratilish va engish kuchi mavjud, masalan: taloq (er) o'pka (metall) kuchini to'ldira olishi mumkin, bu xuddi "er metallni yaratishi"ning o'zi. Shifokor o'pka bilan bog'liq kasalliklarni davolashda ko'pincha avval taloq kuchini oshirishdan boshlaydi va bu ancha yaxshi samara beradi.

Xitoy dorishunosligi xitoy tabobatida juda keng qo'llaniladi, xitoy dorishunosligi bilan davolash xitoy tabobatining asosiy davolash usullaridan hisoblanadi va uning samaradorligini yanada oshiradi.

Xitoyda eng birinchi dorishunoslikka oid yozilgan asar bu Dung Xan davridagi "神农本草经" "*shénnóng běncǎo jīng*" asaridir, ushbu kitobda 365 xil dori turi yozib qoldirilgan. Min davrining mashhur tabibi va farmatsevti bo'lmish Li Shichjen (李时珍) o'zining "本草纲目" "*běncǎo gāngmù*" nomli asarida xitoy dorilarining 1892 xilini to'plab yozib qoldirgan, qadimgi xitoyda u dorishunoslik va botanikaning daxosi hisoblangan.

Xitoy dorishunosligida uch turdagi dorilar mavjud: o'simlikdan tayyorlangan dorilar, mineral dorilar va hayvonlardan tayyorlangan dorilar. O'simlikdan tayyorlanadigan dorilar "中草药" "*zhōngcǎoyào*" deb atalib, juda ham ommalashgan, asosan o'simlikning novdasi, poyasi, bargi, guli, mevasi va terisidan tayyorlanadi.

Xitoy dorishunoslik usulida davolayotganda xitoy dorilarining xilma-xil xususiyati va samaradorligi juda qo'l keladi. Dori xususiyati va samaradorligiga ko'ra, xitoy dorilarini sovutuvchi, isituvchi, ko'taruvchi, tushuruvchi va boshqa turlarga ajratish mumkin. Tam bilishiga ko'ra, besh turga: achchiq, nordon, shirin, taxir va sho'rga ajratish mumkin.

Xitoy dorishunosligidan foydalanishda ham tananing ichki 阴 *yīn* va 阳 *yáng* mutanosibligi maqsadi turadi. Misol uchun issiqlik ko'tarilganda (bezugak tutganda) sovutuvchi dorilardan foydalaniladi, sovuqlik ko'tarilganda isituvchi dorilardan foydalaniladi; kasallik belgilari ko'tarilsa (masalan: qayt qilsa, yo'talsa) tushuruvchi dorilardan, pastga tushganda (masalan ichketsa) ko'taruvchi dorilardan foydalaniladi.

Xitoy dorilarini qabul qilganda ayrim dorilarni bir-biriga moslab qo'shib ichish kerak, qaynagan suv va xar xil sharbatlar bilan qo'shib qo'llash mumkin. Xitoy dorilari yana xabdori, kukun, maz, tabletka va tayyor dori ko'rinishida bo'ladi, foydalanishga eng qulay tayyor dori holatidagisi bo'lganligi uchun odamlar tomonidan iliq kutib olingan. Hozirga kelib, xitoy tayyor holatidagi dorilarining sakkiz mingdan ortiq turi mavjud.

Xitoyning ko'p sonli aholisi xitoy dorilaridan foydalanadi, buning eng asosiy sababi xitoy dorilarining zararli ta'siri deyarli yo'q yoki juda oz; ayrim g'arb dorilari bilan davolanmagan kasalliklar, xitoy dorilaridan foydalanib davolash mumkin; ayrim bemorlarga g'arb dorilari xush kelmaydi, xitoy dorilar bilan o'rnini to'ldirish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda juda ko'p chet elliklar xitoy dorilardan foydalanishni ma'qul ko'radilar.

Li shizhen 李时珍 (eramizning 1518-1593y.) Min davrining mashhur tabibi va farmatsevti bo'lib, Xebeylik tabiblar oilasida dunyoga kelgan. Unda bolaligidanoq, tibbiyotga nisbatan kuchli qiziqish uyg'ongan, u bemorlarni ko'rishni boshlaganida endigina 24 yoshda edi. U juda sinchkovlik bilan tashxis qo'yib, bemorlarga nisbatan iliq munosabatda bo'lardi.

Tibbiyot amaliyotini o'tash mobaynida Li shizhen (李时珍) o'sha davrda mavjud bo'lgan tibbiyot va farmatsevtikaga oid bo'lgan kitoblardan juda ko'p

xatoliklar topgan, ayrim guruhlarini bo'lishda xatoliklar o'tib ketgan, ayrim dorilarning xususiyatlari noaniq yozilgan, yana bir qancha ishonarli irimlarni qo'shgan. Meditsina va farmatsevtik kitoblarning yaxshi-yomonligi insonlarning hayoti va salomatligi bilan chambarchas bog'liq, shu sababli Li shizhen ilm-fan nuqtai nazaridan etuk tibbiy va dorishunoslikka oid kitobini yozishga qaror qildi. Shundan so'ng, 35 yoshidan boshlab u barcha diqqatini “本草纲目” “*běncǎo gāngmù*” kitobini yozishga jamladi.

Ushbu kitobini yuqori saviyada yozish uchun u 800 dan ortiq kitobni varaqladi, tadqiqotlari uchun ko'pgina Xuanxe daryosi bo'ylab joylashgan erlarda bo'ldi, o'z hohishi bilan o'sha erlik aholidan ilm o'rgandi, juda ko'p dorivor o'simliklar namunalarini hamda har hil millatlarning dori retseptlarini to'pladi, yana uyida ularni o'zi tayyorlab, sinab ko'rardi. 27 yil mashaqqatli mehnati tufayli ohir oqibat 1578 yilda butun dunyoga mashhur bo'lgan katta meditsina va farmatsevtik kitob “本草纲目” “*běncǎo gāngmù*”ni yozib tugatdi.

“本草纲目” “*běncǎo gāngmù*”da umumiy 1 mln. 900 mingdan ziyod ieroglif mavjud bo'lib, 16 bo'lim, 52 bog', 60 turga bo'lingan. Hammasi bo'lib 1892 hil dori turini yiqqan, har bir dorining ishlab chiqarilgan joyi, xususiyati, rangi, mazasi va asosan qaysi kasalliklarni davolashda qo'llanilishi juda tushunarli hamda tartib bilan yozilgan; 11096 ta dori retsepti yig'ilgan; odamlar dorilarni ajratib olishlariga yordam tariqasida 1110 ta dorivor o'simliklar rasmi tushurilgan, turli hil dorilarning xususiyatlarini juda mahorat bilan tasvirlagan.

“本草纲目” “*běncǎo gāngmù*” hozirga kelib ham Xitoyda o'z mavqe'ini yo'qotgani yo'q, u hanuz farmatsevtika va botanikaning asosiy manbayi hisoblanib kelmoqda. 1647 yil bir polshalik odam mazkur kitobga “Xitoy o'simliklari haqida ma'lumotlar” deb qayta nom bergan, uni 1659 yili nashr ettirib, Evropa botanikasi rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shundan so'ng, mazkur kitob turli tillarga tarjima qilinib, juda ko'p davlatlarga tarqalib ketgan.

Hozirda Xebeyda Li shizhen maqbarasi va dorivor o'simliklar bog'i qad rostlab turibdi, har kuni minglab odamlar kelib, bu erlarni ziyorat qiladilar.

I bob. Xitoycha dori yo‘riqnomalarini tarjima qilish tajribasi va dori nomlarini leksik-semantik tahlili

1. Xitoyda ishlab chiqarilgan dori yo‘riqnomalarini o‘zbek tiliga o‘girish tajribasidan

Tajribada uchragan bir qator¹⁵ xitoy dorilari yo‘riqnomalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish natijasida shunga e‘tibor berildiki, deyarli xamma dori yo‘riqnomalarida tuzilish bir xil ekan, shu sababli so‘zlarni taxlil va tarjima qilib chiqishdan oldin yo‘riqnomalarni qay tartibda kelishini ko‘rib chiqishni afzal deb bilindi. Bir tartibda kelgan bandlarni ham to‘g‘ri tarjima qilib tushunish juda muhimligini amaliyot ko‘rsatdi. Gap shundaki xitoy tilida ko‘p so‘zlar bir necha ma’noga egadir, kerakli ma’noni tarjimada olishlik aniqlikka va to‘g‘ri tushunishlikka olib keladi.

Xitoy dorilari yo‘riqnomasi quyidagicha beriladi:

- 1) 药品名称 *yàopǐn míngchēng* – “dorining to‘liq nomi”;
- 2) 成份 *chéngfèn* – “tarkibi (dori nimalardan tarkib topganligi ko‘rsatiladi)”;
- 3) 性状 *xìngzhuàng* – “ko‘rinish va xususiyati (dorining ko‘rinishi, rangi, xidi, ta’mi ko‘rsatiladi)”;
- 4) 功能主治 *gōngnéng zhǔzhì* – “asosiy vazifasi”;
- 5) 用法用量 *yòngfǎ yòngliàng* – “qo‘llanilishi va dozlash. (qancha, necha mahal, iste‘mol qilish miqdori ko‘rsatiladi)”;
- 6) 不良反应 *bùliáng fǎnyìng* – “nojo‘ya ta’siri (dori iste‘mol qilingach, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan noxush holatlar)”;
- 7) 禁忌 *jìnjì* – “ta’qiqlangan holatlar”;
- 8) 注意事项 *zhǔyì shìxiàng* – “ehtiyotkorlik choralari” (bu ayrim dorilardagina uchrashi mumkin);
- 9) 贮藏 *zhùcáng* – “saqlanishi”;

¹⁵ 白录片, 虫草菌丝体, 盐酸氮芥酞, 正天丸, 风油精, 百肤康 ва бошқалар

10) 包装 *bāozhuāng* – “qadoqlanishi”;

11) 有效期 *yǒuxiàiqī* – “yaroqlilik muddati”;

12) 生产企业 *shēngchǎn qǐyè*– “ishlab chiqargan korxona”. Bu band o‘z o‘rnida quyidagilarga bo‘linadi:

a). 企业明 称 *qǐyè míng chēng* – “korxona nomi”

b). 生产 地址 *shēngchǎn dìzhǐ*– “ishlab chiqarilgan joy manzili”

c). 邮政编码 *yóuzhèng biānmǎ* – “pochta indeksi”

d). 质量咨询电话号码 *zhìliàng zīxún diànhuà háomǎ* – “sifati haqidagi ma’lumotlar va telefon raqamlari”

e). 销售业务电话号码 *xiāoshòu yèwù diànhuà háomǎ* – “savdo bo‘limining telefon raqami.”

f). 传真号码 *chuánzhēn hàomǎ* – “faks raqami”

g). 网址 *wǎngzhǐ* – “elektron pochta”

Ko‘rib turganimizdiki dori yo‘riqnomalarining tarkibi va bandlarining nomlari o‘ziga xos va e‘tiborga loyiqdir. Endi bevosita shu terminlar tarjimasiga qay tarzda yondoshilganligi ko‘rib chiqiladi.

药品名称 *yàopǐn míngchēng*. Ushbu termin 3 ta so‘zdan iborat bo‘lib, 药 *yào* – “dori” ma‘nosini, 品 *pǐn* – so‘zi esa “mahsulot” degan ma‘noni va 名称 *míngchēng* – “nom” ma‘nosini anglatadi. Ko‘rib turganimizdek, bu atama so‘z birikmasidan iboratdir. Tarjimasini quyidagicha olish mumkin: “dorining nomi”. Ushbu birlikni farmasevtik termin sifatida qabul qilishimizning asosiy sababi, uning deyarli hamma dori ko‘rsatmalarida shu ko‘rinishda kelishidir. Yana shuni ta’kidlab o‘tish kerakki deyarli hamma dori ko‘rsatmalari ieroglifik yozuvda berilsada, biroq albatta dorining nomi yana lotin grafikasiga asoslangan transkripsiyada ham beriladi. Bundan tashqari terminning yasalihi kompozitsiya usuliga asoslangan.

成份 *chéngfèn* ikki bo‘g‘inli so‘z, 2 xil ma’noga ega: a) “tarkib”; b) “insonlarning jamiyatdagi o‘rni”. Biroq farmasevtik termin sifatida u faqat

“tarkib” degan ma’noga egadir. Tuzilish jihatdan atama ikkita soʻzni kompozitsion usul orqali qoʻshilishidan yasalgan.

性状 *xìngzhuàng* termini oʻzbek tiliga “koʻrinish va xususiyatlari” deb tarjima qilinishi kerak. 性 *xìng* alohida “harakter, xususiyat”, 状 *zhuàng* esa “koʻrinish, shakl” degan maʼnolariga ega. Oʻzbek tilida mazkur termin ikkita har xil soʻz bilan tarjima qilinsada, xitoy tilida qoʻshma soʻz deb qabul qilingan. Bunday xususiyat faqat ierogliflarga xosdir. Yaʼni har bir soʻz boʻlagi yoki ieroglif albatta oʻz leksik yoki grammatik maʼnosiga egadir.

功能主治 *gōngnéng zhǔzhì* “asosiy vazifasi” deb tarjima qilinadi. 功 *gōng* – a) “mehnat, hizmat”; b) “natija, samara”; c) “ustalik, sanʼat”; d) “ish”; 能 *néng* – a) “qobiliyat, kuch”; b) “qila olmoq, qurbi etmoq”; c) “mumkin, boʻlishi mumkin” maʼnolari mavjud boʻlib, birgalikda 功能 *gōngnéng* – “vazifa” maʼnosini anglatadi. 主 *zhǔ* – a) “xoʻjayin”; b) “xudo, parvardigor”; c) “asosiy, muhim”; 治 *zhì* – a) “boshqarmoq, tartibga solmoq”; b) “dovolamoq”; c) “barbod qilmoq, yoʻqotmoq”; d) “jazolamoq” maʼnoli soʻzlar birgalikda kelganda 主治 *zhǔzhì* – “asosiy, bosh” maʼnosini bildiradi. Ushbu termin ikkita soʻzdan iborat boʻlgan soʻz birikmasidir. Xitoy tilida ham oʻzbek tilida ham soʻz birikmisiga toʻgʻri keladi.

用法用量 *yòngfǎ yòngliàng* oʻzbek tiliga “qoʻllanilishi va dozalash” deb tarjima qilinadi. 用 *yòng* alohida “qoʻllash, foydalanish” maʼnosiga ega boʻlgan sodda soʻz boʻlsa, 法 *fǎ* – “uslub, qonun va misol” maʼnosiga egadir. 量 *liàng* soʻzi esa “miqdor, daraja” maʼnolariga ega. Soʻzma-soʻz tarjima qilganda “qoʻllanish usuli va qoʻllash miqdori” maʼnosi kelib chiqadi.

不良反应 *bùliáng fǎnyìng* farmasevtik termin sifatida “nojoʻya taʼsiri” deb berilishi lozim. Ushbu termin oʻzbek va xitoy tilida ham ikki soʻzdan iborat boʻlgan soʻz birikmasi shaklida beriladi.

禁忌 *jìnjì* “ta’qiqlangan holatlar”. Ushbu soʻz ham ot ham feʼl soʻz turkumiga mansub maʼnolarda ishlatilishi mumkin. Lekin farmasevtik termin sifatida faqat ot soʻz turkumi maʼnosida keladi.

注意事项 *zhǔyì shìxiàng* “ehtiyotkorlik choralari” maʼnosida oʻzbek tiliga oʻgiriladi. 主意 *zhǔyì* soʻzi “diqqat qilmoq, diqqat” maʼnolarini anglatadi. 事项 *shìxiàng* “band, punkt, modda” degan maʼnolari bor. Soʻzma-soʻz tarjimasi “eʼtiborga loyiq band”.

包装 *bāozhuāng* termini “qadoqlash” soʻzi bilan tarjima qilinadi. 包 *bāo* alohida maʼnosi “oʻramoq”, “quchoqlamoq”. 装 *zhuāng* “kiyim-kechak” va “joylashtirish” maʼnolariga egadir. Soʻzma-soʻz tarjimasi “oʻrab joylashtirish” maʼnosini beradi.

有效期 *yǒuxiàiqī* “yaroqlilik muddati” deb tarjima qilinadi. 有 *yǒu* “bor boʻlmoq”, 效 *xiào* “taʼsir, natija, samara”, 期 *qī* “muddat”, soʻzma-soʻz tarjimasi “naf tegadigan muddat” degan tushuncha kelib chiqadi.

生产企业 *shēngchǎn qǐyè*, 生产 *shēngchǎn* “ishlab chiqarish”, 企业 *qǐyè* “korxona, tashkilot”, soʻzma-soʻz tarjimasi bilan yasalgan termin maʼnosi mos tushadi.

生产地址 *shēngchǎn dìzhǐ* “ishlab chiqarish manzili”. Bu soʻzning holati yuqoridagiga oʻxshab ketadi.

邮政编码 *yóuzhèng biānmǎ* “pochta indeksi raqamlari” deb tarjima qilinadi.

质量咨询电话号码 *zhìliàng zīxún diànhuà háomǎ* “sifati haqida maʼlumotlar va mumkin boʻlgan telefon raqamlar”

销售业务电话号码 *xiāoshòu yèwù diànhuà háomǎ* “savdo boʻlimining telefon raqami”.

传真号码 *chuánzhēn hàomǎ* “faks raqami”.

网址 *wǎngzhǐ* “elektron manzil”(e-mail).

Yuqorida keltirilgan misollar tuzulish jihatdan bir nechta soʻzlarni oʻz ichiga qamrab olib, soʻz birikmalarini xosil qiladi. Lekin ular shu tarkibda uchraganligi sababli yaxlit birlik sifatida qabul qilinishi mumkin.

2. Xitoy dori nomlarini leksik-semantik tahlili

Xitoy dori nomlarini oʻzbek tiliga tarjima qilishda oʻziga xos tajriba va mahorat talab qilinadi. Meditsina va farmatsevtika sohalari boʻyicha xalqaro til sifatida lotin tili qabul qilingani barchamizga maʼlum. Shunga koʻra chet el dori nomlarini koʻrganimizda uni nima doriligini qisman boʻlsada bilishimiz mumkin. Masalan, ohiri “in” qoʻshimchasi bilan tugagan dori nomlari antibiotiklar guruhiga kiradi: penicillin, cefozolin, levometsetin va xokazo. Bu usul dori nomlarini bilish va tushunishda anchagina qulayliklar yaratadi. Biroq xitoy dori nomlarining oʻziga xosligi ham shundaki, u bu usuldan foydalanmaydi.

Tajribada uchragan bir nechta dori nomlarining leksik-semantik tahlili amalga oshirildi:

I. 虫草菌丝体 *chóng cǎo jūnsītǐ*. Bu dori nomi 3 ta soʻzdan iborat:

- 1) 虫 *chóng* - “hashorot, chuvalchang” maʼnosiga ega.
- 2) 草 *cǎo* - a) “oʻt, giyoh”; b) “beparvo” maʼnolari bor. Bu soʻz koʻp maʼnoli boʻlgani uchun tarjimada yana bir qancha qiyinchiliklar yaratadi. Bu erda “oʻt, giyoh” maʼnosini olamiz.
- 3) 菌丝体 *jūnsītǐ* – bu soʻz 3 ta mustaqil maʼnoli soʻzning qoʻshilishidan hosil boʻlgan: 菌 *jūn* – “qoʻziqorin, zamburugʻ”; 丝 *sī* – a) “ipak”, b) “ip”, c) “si – 0,0033 mm ga teng boʻlgan uzunlik oʻlchov birligi”, d) “si- 0,5 mg ga teng boʻlgan ogʻirlik oʻlchov birligi”, e) “eng kichik, zarracha”; 体 *tǐ* – a) “tana, organizm”, b) “xat, shrift”, c) “uslub, janr, shakl” maʼnoli soʻzlardan iborat. Bu erda shu uchchala soʻz oʻzining alohida maʼnolarida emas, balki qoʻshilib bitta yangi soʻz hosil qiladi. 菌丝体 *jūnsītǐ* – “zamburugʻ ildizi, mitseliy” maʼnosini beradi.

Xitoy dorilariga o'zbekcha ekvivalentini berish biroz mushkul bo'lsada, shu tarjimadan kelib chiqib, bu dori chuvalchang, giyohlar va zamburug' ildizidan iboratligini bilish mumkin. Bu dori aslida immunitetni oshiradigan dori bo'lsada, dorining nomida faqat tarkibiga urg'u berilgan. Xalqaro farmatsevtika standartlariga ko'ra bu dori nomiga ekvivalent berishda "immuno" old qo'shimchasi bilan ifodalash kerak. Ko'rib turganimizdek xitoy dori nomlarida bu dorining nimaga qaratilganligiga (funksiyasiga) ishora yoq. Ushbu dori nomini o'zbekcha ekvivalenti sifatida xitoycha fonetik o'qilishini berish bilan kifoyalandik: "*chóng cǎo jūnsī*".

II. 白灵片 *bái ling piàn*. Ushbu dori nomi 3 ta bir bo'g'inli mustaqil so'zlardan tashkil topgan :

- 1) 白 *bái* – a) "oq rang", b) "aniq, aniqlamoq", c) "toza, tiniq", d) "behuda, foydasiz", e) "bepul, tekin" ma'nolari bor.
- 2) 灵 *ling* – a) "mohir, epchil, harakatchan, serg'ayrat", b) "sezgir", c) "qalb, ruh", d) "ajoyib ta'sir ko'rsatadigan, foydali ta'sir ko'rsatadigan", e) "tobud (ichida mayit bilan birga)" ma'nolari mavjud.
- 3) 片 *piàn* – a) "varoq, qog'oz bo'lagi", b) "qism, joy", c) "bo'lmoq", d) hisob so'z "bo'lak" ma' nolaridan iborat.

Bu uchchala so'z ham ko'p ma'noli so'zlar bo'lganligi uchun xar bir so'zning barcha ma'nolarini sinchkovlik bilan o'rganib, undan so'nggina tarjima qilishga o'tish mumkin. 白 *bái* – "oq, yorug'", 片 *piàn* – "qog'oz bo'lagi, parcha" ma'nosini, 灵 *ling* – "ajoyib ta'sir ko'rsatadigan, foydali ta'sir ko'rsatadigan" ma'nosini olinsa ham xato bo'lmas edi, biroq ushbu dori pes (teriga oq tushishi) kasalligini davolash uchun qo'llanilishini nazarda tutib, bu kasallikning mohiyatidan kelib chiqqan holda "sezgir" ma'nosi tanlandi. Va bu dori nomining o'zbekcha ekvivalentini dorining mazmunidan kelib chiqib "yorug'likka sezgirlikni kuchaytiradigan tabletkalar" deb berildi, bundan tashqari xitoycha fonetik o'qilishini "*bái ling piàn*" deb ham berish mumkin.

III. 盐酸氮芥酞 *yánsuān dàn jiè dǐng* . Bu dori nomi bitta ikki bo'g'inli va uchta bir bo'g'inli so'zlardan tashkil topgan:

- 1) 盐酸 *yánsuān* – bu so'z ikkita mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan: 盐 *yán* – “tuz”; 酸 *suāns* – a) “kislota”, b) “nordon”, c) “qattiq qayg'urmoq”, d) “bachkana” ma'noli so'zlardan iborat. Bu erda ikkita so'z qo'shilib, yangi ma'noli so'z hosil qilgan. 盐酸 *yánsuān* – “xlor-vodorodli kislota” ma'nosini keltirib chiqaradi.
- 2) 氮 *dàn* – “azot, nitrogen” ma'nosi bor.
- 3) 芥 *jiè* – “gorchitsa (xantal o'simligi)”.
- 4) 酞 *dǐng* – “tinktura, sharbat” ma'nosi mavjud.

Ushbu dori nomi so'zlari yuqorida ko'rsatilgan dori nomlaridan farqli ravishda bir ma'noli so'zlar bo'lib, dorining tarkibiy qismi nimalardan tuzilganligiga ishora qilinmoqda. Dorining nomlanishida ham tarkibidagi moddalarni ketma-ket sanash orqali berilgan : “xlor-vodorodli kislota, nitrogen va gorchitsalardan (xantal) iborat tinktura”. Buni so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'linsa, u holda o'zbek tili uchun g'ayritabiiy hisoblanib, o'zbek tili normalarini buzib qo'yish mumkin. Chunki o'zbek tilida dori nomlanishida bunday usul kuzatilmagan. Shu sababdan bu dorining ham o'zbekcha ekvivalenti sifatida xitoycha fonetik o'qilishini “*yánsuān dàn jiè dǐng*” ni tanladik.

3. Xitoy dorilarining tarkibiy qismida uchraydigan so'zlarning leksik-semantik tahlili

Xitoy dori yo'riqnomalarida uchraydigan bandlar ketma – ketligi bo'yicha endi xitoy dorilarining tarkibiy qismida uchraydigan so'zlar tarjimasi tahliliga to'xtalib o'tiladi.

Xitoy dorilarini tarjima qilganda tarjimonlar odatda dori yo'riqnomasida keltirilgan bandlardan faqat 功能主治 *gōngnéng zhǔzhì* – “asosiy vazifasi”, 用法用量 *yòngfǎ yòngliàng* - “qo'llanilishi va dozalash” va 不良反应 *bùliáng*

fǎnyìng “nojo`ya ta`siri”nigina tarjima qiladilar halos. Uning tarkibiy qismiga ahamiyat bermaydilar, chunki dorilar har xil giyohlar, kimyoviy moddalardan tashkil topgan bo`lishi mumkin, bunday so`zlar oddiy lug`atlarda uchramaydi. Bundan tashqari yana bir qiyinchilik tug`diradigan tomoni, bu so`zlarni tarjima qilib, ularni bir-biriga ma`no jihatdan bog`lash uchun ham tarjimon tibbiy ma`lumotga ega bo`lishi lozim.

Tadqiqotning asosiy maqsadi shuki, xitoy dorilarining tarkibiy qismi nimalardan iborat bo`lishi mumkinligi va ularni tarjima qilish usullarini tahlil qilib, xitoy dorilari tarjima qilinganda ularning tarkibiy qismi ham tarjima qilinishini yolg`a qo`yishdir.

Bu masalaning dolzarbligi shundaki, shu kungacha xitoy dorilarining tarkibiy qismi o`zbek tiliga tarjima qilishda qay tarzda yondoshish va nimalarga ahamiyat berish noma`lum edi.

Tajribamizda uchragan xitoy dorilaridan bittasi misolida xitoy dorilarining tarkibiy qismini tarjima qilish hamda tahlil qilish ko`rib chiqildi. Xitoy dorilari yo`riqnomasining birinchi bandida dorining 药品名称 *yàopǐn míngchēng* – “dorining to`liq nomi” berilsa, ikkinchi bandida albatta 成份 *chéngfèn* – “tarkibiy qism”i keltiriladi.

白灵片 *bái líng piàn* dorisi misolida tahlil qilinadigan bo`lsa, bu dorining tarkibiy qismi 11 ta komponentdan iborat:

1. 当归 *dāngguī* – “dudnik” (dorivor o`simlik). Ikki bo`g`inli so`z bo`lib ikkita sodda so`zdan yasalgan:

当 *dāng* – 1) a) “munosib”; b) “amal qilmoq, rioya qilmoq”; c) “yuzma-yuz, qarshisida”; d) “aynan o`sha”; 2) a) “qandaydir lavozimda ishlamoq, bo`lmoq”; b) “majburaylatni o`z bo`yniga olmoq, sazovor bo`lmoq, arzimoq”; 3) “shovqin”. Ko`rib turganimizdek bu so`z juda ko`p ma`noli bo`lib, tarjimada qiyinchiliklar keltirib chiqarashi mumkin.

归 *guī* – a) “qaytmoq”; b) “qaytarmoq”; c) “yig`ishtirmoq”; d) “birlashtirmoq, jamlamoq”; e) “biror bir narsaga egalik qilmoq”; f) “10 dan

kichik bo'lgan bo'luvchi sonlarda bo'lish usuli". Mazkur so'zni tashkil etgan ikkala soda so'z ham o'z ma'nolarida ishlatilmagan, balki qo'shilib bitta yangi so'z hosil qilgan.

当归 *dāngguī* – “dudnik” (ko'p yillik o'simlik bo'lib, barglari patsimon, guli oq rangda va soyabonsimon shaklga ega. Ko'p mayda ildizli, mevasi dumaloq shaklda, o'ziga hos xidga ega. Dori tayyorlashda keng foydalaniladi).

2. 三七 *sānqī*. Bu ham ikkita soda so'zdan yasalgan ikki bo'g'inli soz:

三 *sān* – “3 soni”;

七 *qī* – “7 soni”. Ikkala so'zning ham o'zini ma'nolarida olinadigan bo'lsa “3 va 7” ma'nosi kelib chiqadi. Farmatsevtik so'zlarni tarjima qilishning barcha chigalliklari ham shunda. Bu erda so'zlar “3” va “7” ma'nosida emas, balki aksincha ikkita so'z qo'shilib boshqa bir ma'noni anglatmoqda, ya'ni 三七 *sānqī* – “patsimon qirqilgan ginura (перистонадрезная гинупа)” dorivor modda ma'nosida kelgan. Bu ko'p yillik o'simlik novdasi qalin, mayda och sariq va yashil gulli bo'lib, xitoyning *Yunnan, Sichuan, Hunan, Hubei* provinsiyalarida uchratishi mumkin. Xitoy dorishunosligi va tabobatida qonni quyiltirib to'xtatish, shishlarni bartaraf etish hamda bir qancha qon bilan bog'liq hastaliklarni davolashda keng foydalaniladi.¹⁶

3. 红花 *hónghuā*. Ikkita mustaqil ma'noga ega bo'lgan sodda so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan yangi so'z:

红 *hóng* – a) “qizil rang”; b) “to'q qizil rangli mato”; c) “omadli, mashxur”; d) “tant'ema (capitalist mamlakatlarda sof foydadan savdo va boshqa firmalarning raxbarlariga beriladigan qo'shimcha xaq)”.

花 *huā* – 1) a) “gul”; b) “gul shakliga ega bo'lgan narsalarning ko'rinishini ifodalashda qo'llaniladi”; c) “mushakbozlik, mushak”; d) “naqsh”; e) “jimirlatmoq, qamashtirmoq”; 2) “sarflamoq”. Bu erda ham yuqoridagi singari 红 *hóng* hamda 花 *huā* o'z ma'nolarida emas, qo'shilib yangi so'z hosil qilgan.

¹⁶ 辞海. 上海辞书出版社出版, 1979, – 页 13

红花 *hónghuā* – “boʻyoq olinuvchi saflor (сафлор красивый)”. Mazkur oʻsimlik noyob oʻsimliklardan hisoblanib, yoz oylarida gullaydi va uning yaproqlaridan bir necha xil ranglarni sintez qilishda foydalaniladi. Bundan tashqari koʻpgina shifobaxsh xususiyatlarga ega, jumladan tromblarni eritishda ham ishtirok etadi.

4. 牡丹皮 *mǔdānpí*. Mazkur soʻz ikkita sodda soʻzdan hosil boʻlgan uch boʻgʻinli soz:

牡 *mǔ* – “erkak”.

丹 *dān* – a) “qizil rang”; b) “xabdori (pilyula), kukun” maʼnolariga ega. Bu ikki soʻz oʻzaro qoʻshilib, bitta yangi soʻz hosil qiladi.

牡丹 *mǔdān* – “daraxtsimon sallagul (пион)” deb tarjima qilinadi (Bu oʻsimlikning guli katta-katta, toʻq qizil, pushti va oq ranglarda boʻladi).

牡丹花 *mǔdānhuā* xitoy xalqining 国花 *guóhuā* – davlat guli xisoblanadi).

皮 *pí* – a) “teri, ustki qatlam”; b) “nomlanmoq”; c) “shoʻx”; d) “koʻnikmoq, moslashmoq” maʼnolari bor. 皮 *pí* soʻzini 牡丹 *mǔdān* soʻziga bogʻlaydigan boʻlsak, 牡丹皮 *mǔdānpí* – “sallagul oʻsimligining poʻstlogʻi” degan maʼno kelib chiqadi. Sallagul oʻsimligining poʻstlogʻi xitoy tabobatida keng foydalaniladi.

5. 桃仁 *táorén*. Bu soʻz ikkita sodda soʻzning qoʻshilishidan yasalgan:

桃 *táo* – “shaftoli” deb tarjima qilinadi.

仁 *rén* – a) “insonparvarlik, odamgarchilik”; b) “magʻiz” maʼnolariga ega.

Bu ikki soʻz maʼnolari oʻz-oʻzidan 桃仁 *táorén* – “shaftoli magʻizining poʻstloq qismi (shaftoli danagi)” maʼnolarini keltirib chiqaradi. Shaftoli magʻizining poʻstlogʻi, yaʼni danagi dori-darmon sohasida keng foydalaniladi. Xitoy yozuvi iyerogliflarining qiziq tomoni ham shundaki, iyerogliflardagi xar bir belgining oʻziga xos maʼnolari mavjud, shu maʼnolar jamlanganda bir yangi soʻzni hosil qila oladi. Taxir taʼmga ega boʻlgan bu dorivor modda qon va uning kasalliklarida katta nafi bor.

6. 防风 *fángfēng*. Bu soʻzni ham tahlil qiladigan boʻlsak,

防 *fáng* – a) “oldini olmoq, ogohlantirmoq, saqlamoq, ehtiyot boʻlmoq”; b) “mudofaa, oʻz-oʻzini himoya qilmoq”; c) “damba (daryo va suv havzalari atrofiga tuproq, shagʻal va x.k. dan qurilgan koʻtarma)”. Koʻrib turganimizdek bu soʻzning uch xil maʼnolarini ajratgan boʻlsak ham, lekin umumiy olganda barcha maʼnolari “nimanidir oldini olmoq” maʼnolarini keltirib chiqaradi.

风 *fēng* – a) “shamol”; b) “quritilgan, shamolda quritilgan”; c) “odat”; d) “xabar, darak, ovoza” maʼnolariga ega.

防风 *fángfēng* – “ekiladigan Pasternak” (ildiz mevali, zira xidini beradigan sabzavot oʻsimligi). 防 *fáng* va 风 *fēng* soʻzlari oʻz maʼnolarida emas, qoʻshilib yangi soʻz hosil qiladi. Bu dorivor oʻsimlik tana qon bosimini meʼyorda saqlashga, isitma koʻtarilganda, bosh ogʻrigʻida va yana bir qancha shamollash bilan bogʻliq hastaliklarda qoʻllaniladi.

7. 苍术 *cāngzhú*. Ikkita sodda soʻzning qoʻshilishidan hosil boʻlgan soʻz.

苍 *cāng* – a) “havorang va yashil ranglarini ifodalovchi rang turi”; b) “och kulrang”; c) “butun borliq osmon” maʼnolariga ega.

术 *zhú* soʻzi mustaqil maʼnoga ega emas, boshqa soʻzga qoʻshilibgina maʼno anglatadi.

苍术 *cāngzhú* – “tuxumsimon atraktilis”. Koʻp yillik dorivor oʻsimlik boʻlib, oq yoki och pushti rangda gullaydi, dori-darmon sohasida keng qoʻllaniladi. Ushbu koʻp yillik oʻsimlik ham dori – darmon sohasida juda mashxur hisoblanadi.

8. 白芷 *báizhǐ*. Bu soʻzni ham yuqorida kelgan soʻzlar singari tahlil qilib koʻramiz.

白 *bái* – 1) a) “oq rang”; b) “aniq, aniqlashtirmoq”; c) “toza”; d) “behuda, foydasiz, bekorga”; e) “tekin, bepul”; 2) “notoʻgʻri, xato” maʼnolarini bildiradi.

芷 *zhǐ* soʻzi oʻz mustaqil maʼnosiga ega boʻlmagan soʻz sanaladi. Boshqa bir soʻzga qoʻshilibgina maʼno anglatishi mumkin.

白芷 *báizhǐ* – “daur dudnigining ildizi”. Bu ham k’op yillik o’simlik bo’lib, guli oq rangda bo’ladi va mevasi dumaloq shaklga ega. Ildizi qalin, konussimon, xushbo’y xidga ega, xitoy tabobatida juda keng foydalaniladi.

9. 马齿苋 *mǎchǐxiàn*. Bu so’z uchta mustaqil ma’noga ega bo’lgan so’zlarning birikishidan hosil bo’lgan.

马 *mǎ* – “ot, tulpor”.

齿 *chǐ* – “tish”.

苋 *xiàn* – “amarant, shiritca”. Bir yillik o’simlik bo’lib, poyasi nozik, barglari yapaloq shaklda, bargining bandi uzun-uzun va to’q binafsharang yoki yashil rangda bo’ladi, guli oq, yashil rangda, urug’i qora rangda bo’ladi. Poyasi hamda barglari oddiy sabzavot sifatida etishtiriladi. Bu uchchala so’z ham bir ma’noli so’zlar bo’lib, birga qo’shilganda yangi bir ma’noni bildiradi.

马齿苋 *mǎchǐxiàn* – “quyonquloq, semizo’t” nomli o’simlik deb tarjima qilinadi. Ushbu dorivor o’simlikni o’zbek tiliga “quyonquloq” deb tarjima qilingani bilan bizning sharoitimizda etishtiriladigan va xitoyda etishtiriladigan quyonquloqda biroz farq mavjud, muhit ta’siri tufayli gullarining ranglari har xil, bizda quyonquloqning guli ko’k – havo rangda. Xitoy sharoitidagi esa poyasi tik, barglari yirik, gullari mayda, och sariq rangda bo’ladi. Bu o’simlik oshqozon – ichak kasalliklarida, zaharlanganda, sovuqni olishda samarali yordam beradi.

10. 赤芍 *chìsháo*. Ikkita sodda so’zlarning qo’shilishidan hosil bo’lgan.

赤 *chì* – a) “qizil rang”; b) “sodiq”; c) “yalang’och” ma’nolariga ega.

芍 *sháo* – “sallagul (pion o’simligi)”.

赤芍 *chìsháo* – “och qizil sallagul”. Dori-darmon sohasida, qon quyilishi, oqqon, teriga oq tushishi kabi bir qancha teri kasalliklarida keng qo’llaniladigan o’simlik turi.

11. 黄芪 *huángqí*. Bu so’z ham yuqorida keltirilgan so’zlar qatori ikkita so’zning qo’shilishidan hosil bo’lgan.

黄 *huáng* – a) “sariq rang”; b) “barbod bo’lmoq, xarob bo’lmoq” ma’nolaridan iborat.

芪 *qí* mustaqil ma’noga ega bo’lmagan so’z, 黄 *huáng* so’zi bilan qo’shilib yangi ma’no anglatadi.

黄芪 *huángqí* – “astragal” ko’p yillik o’simlik bo’lib, barglari patsimon yumaloq shaklga ega, momiq tukchalari bor, guli mayda och sariq rangda bo’ladi. Dori-darmon sohasida keng foydalaniladigan o’simliklar qatoriga kirib, shirin ta’mga ega, ichki jarohatlarni davolashda, ichketishini to’xtatishda va yana bir qancha ichki kasalliklarda qo’llash mumkin.

Birinchi bob xulosasi

Birinchi bob tahlil natijalariga ko’ra quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Xitoy dori yo’riqnomalarida odatda 12 band bo’lishi aniqlandi:

1) 药品名称 *yàopǐn míngchēng* – “dorining to’liq nomi”;

2) 成份 *chéngfèn* – “tarkibi (dori nimalardan tarkib topganligi ko’rsatiladi)”;

3) 性状 *xìngzhuàng* - “ko’rinish va xususiyati (dorining ko’rinishi, rangi, xidi, ta’mi ko’rsatiladi)”;

4) 功能主治 *gōngnéng zhǔzhì* – “asosiy vazifasi”;

5) 用法用量 *yòngfǎ yòngliàng* – “qo’llanilishi va dozalash. (qancha, necha mahal, iste’mol qilish miqdori ko’rsatiladi)”;

6) 不良反应 *bùliáng fǎnyìng* – “nojo’ya ta’siri (dori iste’mol qilingach, kelib chiqishi mumkin bo’lgan noxush holatlar)”;

7) 禁忌 *jìnjì* “ta’qiqlangan holatlar”;

8) 注意事项 *zhǔyì shìxiàng* – “ehtiyotkorlik choralari” (bu ayrim dorilardagina uchrashi mumkin);

9) 贮藏 *zhùcáng* – “saqlanishi”;

10) 包装 *bāozhuāng* – “qadoqlanishi”;

11) 有效期 *yǒuxiàeqī* – “yaroqlilik muddati”;

12) 生产企业 *shēngchǎn qīyè* – “ishlab chiqargan korxona”.

2. Xar bir bandning nomi o`zbek tilida anglatadigan ma`nosi hamda o`zbekcha nomi berildi.

3. Ayrim bandlar o`z o`rnida bir necha kichik bandlarga bo`linishi aniqlandi.

4. Bandlarni tarjima qilish mobaynida nafaqat tarjima usulidan balki leksik-semantik tahlil asosida o`zbekcha ekvivalentlari berildi.

5. tahlil natijasi yana shuni ko`rsatadiki, xitoy dorilari hamda dunyo dorishunosligida dori nomlanishi har xil mezonlarga asoslangandir, xususan farmasevtika sohasi lotin tiliga tayangan holda maxsus qo`shimcha va old qo`shimchalar orqali dori qaysi kasalliklar turkumiga oidligi begilanadi. Biroq xitoy dori nomlarining o`ziga xosligi ham shundaki, u bu usuldan foydalanmaydi. Xitoy farmasevtikasida odatda dori nomida faqat tarkibiga urg`u beriladi. Dorining nomlanishida tarkibidagi moddalarni ketma-ket sanash orqali so`zma-so`z tarjima qiladigan bo`linsa, u holda o`zbek tili uchun g`ayritabiiy hisoblanib, o`zbek tili normalarini buzib qo`yish mumkin. Chunki o`zbek tilida dori nomlanishida bunday usul kuzatilmaydi. Shu sababdan ko`p hollarda dorining o`zbekcha ekvivalenti sifatida xitoycha fonetik o`qilishini qabul qilindi.

6. Xitoy dorilarining tarkibiy qismi o`zbek tiliga tarjima qilishda qay tarzda yondoshish va nimalarga ahamiyat berish aniqlandi. Xususan, tarjimon albatta ma`lum darajada tibbiy ma`lumotga ega bo`lishi, bundan tashqari xitoy tilidagi maxsus enciklopedik lug`atlardan foydalana olishi hamda qiyosiy tahlil uslubida ishlay olishi lozim. Masalan, 马齿苋 *mǎchǐxiàn* dorivor o`simligi o`zbek tiliga “quyonquloq” deb tarjima qilingani bilan bizning sharoitimizda etishtiriladigan va xitoyda etishtiriladigan quyonquloqda biroz farq mavjud, muhit ta`siri tufayli gullarining ranglari har xil, bizda quyonquloqning guli ko`k – havo rangda. Xitoy sharoitidagi esa poyasi tik, barglari yirik, gullari mayda, och sariq rangda bo`ladi. Bu o`simlik oshqozon – ichak kasalliklarida, zaharlanganda, sovuqni olishda samarali yordam beradi.

II bob. Xitoy dori yo`riqnomalarida ko`rinish, asosiy vazifasi va nojo`ya ta`siri bandlari bilan bog`liq terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjima qilish masalalari

1. Xitoy dori yo`riqnomalarida dorining ko`rinish va hususiyatini bildiradigan terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjimasi

“Ko`rinish va hususiyati” bandida dorining tashqi ko`rinishi, rangi, hidi, mazasi haqida ma`lumotlar keltiriladi. Odatda dori yo`riqnomasidagi bu bandga uncha ahamiyat berilmaydi. Aslida dori yo`riqnomalarida bu bandni yozishdan maqsad dori qadog`idan adashib ketmasligi, ichidagi dori xaqiqatdan ham qadog`ida yozilgan dori ekanligi, qalbaki emasligidir. Biroq tadqiqotning asl maqsadi bu emas, dori yo`riqnomalarida uchraydigan “ko`rinish va hususiyati” bandining aynan xitoy dorilarida qay tarzda yozilishi, qaysi so`zlar bilan ifodalanishi hamda tarjimada ko`proq nimalarga ahamiyat berish kerakligini yoritib berish niyatidamiz.

Barchamizga ma`lumki, xitoy tili ieroglifikasi ma`nolarga juda boy, bitta ieroglifning o`zi bir qancha ma`nolarga ega bo`lishi mumkin, uning qiziqarli tomoni ham shunda. Tajribamizda uchragan ayrim dori yo`riqnomalarida uchraydigan “ko`rinish va hususiyati” ni bildiradigan so`zlardagi ierogliflarni hamma ma`nolarini ko`rib chiqib va aynan shu o`rganayotgan bandida qay yo`sinda qo`llanilishini lingvistik tahlil qilishga harakat qilindi.

Bu masalaning dolzarbligi shundaki, xitoyda ishlab chiqarilgan dorilarning ko`rinishi va hususiyati tarjimasiga qay tarzda yondoshish va nimalarga ahamiyat berish kerakligi hali ishlab chiqarilmaganligidadir.

Xitoy dorilari yo`riqnomasining birinchi bandi 药品名称 *yàopǐn míngchēng* – “dorining to`liq nomi”, ikkinchi bandi 成份 *chéngfēn* – “tarkibiy qism”, uchinchi bandi esa 性状 *xìngzhuàng* – “ko`rinish va hususiyati” keltiriladi. Tajribada uchragan bir nechta xitoy dorilari misolida xitoy

dorilarining ko`rinish va hususiyatini tarjima qilish bilan bog`liq tahlilni ko`rib chiqamiz:

I. 正天丸 *zhèngtiānwán* dorisini misol tariqasida olinsa, ushbu dori ko`rsatmasining “ko`rinish va hususiyati” bandida quyidagi jumla uchraydi:

本品为 *běn pǐn wéi* – u uchta so`zdan iboratdir.

本 *běn* – 1. a) “poya, tana, ildiz”; b) “asos, bosh, manba”; c) “tuzish, negiz”; d) “capital, pul”; e) “asosiy, eng muhim”; f) “boshida, avvaliga, o`z vaqtida”; j) “bizning, o`zimizning”; h) “ushbu, mazkur, hozirgi”; 2. a) “daftar”; b) “bosma, nashr, bosmaxonada bosilgan nusxa (ottisk)”; c) kitoblarga nisbatan qo`llaniladigan hisob so`z; d) kino qismlariga nisbatan qo`llaniladigan hisob so`z “qism” kabi ma`nolarni o`zida mujassam etgan. Ko`rib turilganidek bu so`z ma`nolarga juda boy, biz kontekstdan kelib chiqqan holda 本 *běn* so`zining “ushbu, mazkur, xozirgi” ma`nosini tanlab olindi.

品 *pǐn* – a) “predmet, narsa, mahsulot”; b) “hil, nav, daraja”; c) “axloqiy sifat, axloq, inson qadr-qimmat”; d) “tatib ko`rmoq, narsalarning mazasiga qarab sifatini belgilash (degustatsiya), baho bermoq”; e) “chalmoq” ma`nolarga ega, bular orasidan birinchi “mahsulot” ma`nosini olindi.

为 *wéi* – a) “xarakatlanmoq, bajarmoq”; b) “sifatida, deb”; c) “aylanmoq, o`zgarmoq”; d) “bo`lmoq, -dir”. Qadimgi xitoy tilida 为 *wéi* so`zi “bo`lmoq, -dir” ma`nosida keng qo`llanilgan, biroq zamonaviy xitoy tilida 为 *wéi* o`rni 是 *shì* fe`l bog`lovchisi egallagan. Ayrim ilm-fanga tegishli kitobiy tilda hamda ko`rib turganimizdek farmasevtik yo`nalishda xanuzgacha foydalanib kelinmoqda. Shu sababli 为 *wéi* so`zining “bo`lmoq, -dir” ma`nosini tanlandi.

本品为 *běn pǐn wéi* birgalikda “mazkur mahsulot...-dir” deb tarjima qilinadi. Bu qo`llanma gapda “mazkur mahsulot qandayligiga, rangiga, hidiga, mazasiga” e`tibor qaratiladi. Xitoy dori yo`riqnomalarining “ko`rinish va hususiyatlari” bandining ko`pchiligi huddi shunday boshlanadi.

2) 黑色水丸 *hēisè shuǐ wán* – mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlar birikmasi.

黑色 *hēisè* – “qora rang”;

水 *shuǐ* – a) “suv, gidro-”; b) “sharbat (biror bir meva, o'simlik suvi)”; c) “marta (necha marta yuvilganlik soni)”;

丸 *wán* – a) “puffak”; b) “xabdori (sharsimon shakldagi dori)”; c) dori tabletkalariga nisbatan qo'llaniladigan hisob so'z .

So'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak “qora rangdagi suvli kapsula”, demak, 黑色水丸 *hēisè shuǐ wán* – “mayda qora donachalar” deb tarjima qilishni ma'qul topildi. Ma'lumki, tarjimada so'zma-so'z tarjima usuliga tayanib bo'lmaydi, jumladan farmasevtik matnlar ham bundan mustasno emas.

3) 气微香 *qì wēi xiāng* – uchta sodda so'zdan tashkil topgan so'z birikmasi.

气 *qì* – a) “gaz”; b) “havo”; c) “nafas olish”; d) “hid, is”; e) “kayfiyat, ruh”; f) “qiliq, ruhiyat”; j) “g'azablanmoq, jaxl chiqmoq”; h) “birovning jaxlini chiqarmoq, g'azablantirmoq”; i) “xafagarchilik, xaqorat” kabi ma'nolari orasidan tabiiyki “hid, is” ma'nosini tanlab olamiz. Negaki tahlil qilayotgan bandda dorining hidi ham ko'rsatilishini yuqorida aytib o'tilgan.

微 *wēi* – a) “biroz, ozgina, kam, zarracha, bilinar-bilinmas, engilgina, salgina”; b) “mikro-”.

香 *xiāng* – a) “hushbo'y, ishtaha keltiradigan, mazali”; b) “ishtaha bilan”; c) “shirin (qattiq, tingan) uyqu”; d) “qadrlanmoq, baholanmoq”; e) “isiriq; birovni juda maqtab yubormoq” ma'nolariga ega, gap hid haqida ketayotgani sababli “hushbo'y” ma'nosi olindi.

Uchta so'z o'zaro bog'lansa, 气微香 *qì wēi xiāng* – “hidi biroz hushbo'y” deya tarjima qilsak bo'ladi.

4) 味微苦 *wèi wēi kǔ* – uchta mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'z birikmasi.

味 *wèi* – a) “tam, maza”; b) “hid”; c) “tus, hil, imo-ishora, qiziqish, qiziqarli”; d) “-ta” dorilarga nisbatan qoʻllaniladigan hisob soʻz. Bu soʻzning asosiy maʼnosi “tam, maza” boʻlgani uchun shuni tanlab olindi.

微 *wēi* soʻzi bu erda ham yuqorida koʻrib chiqqanimizdek “biroz, bilinar-bilinmas, ozgina” maʼnosida kelgan.

苦 *kǔ* – a) “achchiq, taxir”; b) “qaygʻuli, gʻam-gʻussali, ogʻir”; c) “qiynamoq, azob bermoq, zulm oʻtkazmoq, ozor bermoq”; d) “qatʼiy, bor kuchi bilan, harakat qilmoq” maʼnolariga ega, bular orasidan “achchiq, tahir” maʼnosi tanlandi.

Umumiy maʼnoni chiqaradigan boʻlinsa, 味微苦 *wèi wēi kǔ* – “mazasi biroz achchiq” deb tarjima qilindi. Xitoy dorilarining hidi va mazasini taʼriflashda 微 *wēi* – “biroz, ozgina” soʻzidan keng foydalaniladi.

Demak, 正天丸 *zhèngtiānwán* dori koʻrsatmasidagi 性状 *xìngzhuàng* “koʻrinish va hususiyati” bandida “ushbu mahsulot mayda qora donachalardir, hidi biroz hushboʻy hamda biroz achchiq mazaga ega” maʼlumoti koʻrsatib oʻtilgan.

II. Tahlilni 白灵片 *báilíngpiàn* dorisi yordamida davom ettirildi, mazkur dori koʻrsatmasidagi 性状 *xìngzhuàng* “koʻrinish va hususiyati” bandi ham 本品为 *běn pǐn wéi* – “ushbu mahsulot...” soʻz birikmasi bilan boshlanadi. Bu esa yuqoridagi “juda koʻp dori koʻrsatmalarining koʻrinish va hususiyati bandi shunday boshlanadi” degan fikr dalilidir.

1) 糖衣片 *tángyī piàn* – uchta soda soʻzlardan iborat soʻz birikmasi.

糖 *táng* – a) “uglevod”; b) “qand, shakar”; c) “konfet”.

衣 *yī* – a) “kiyim-kechak”; b) “tashqi qobiq, teri”; c) “yoldosh, homilaning ustki qobigʻi”. 糖衣 *tángyī* – “shakar-qiyom, shira (glazur)”. Bu erda 糖 *táng* – “qand” va 衣 *yī* – “tashqi qobiq” maʼnolari jamlamasidan 糖衣 *tángyī* – “shakar bilan qoplangan” deb tarjima qilindi.

片 *piàn* – a) “varoq, qog`oz bo`lagi”; b) “qism, joy”; c) “bo`lmoq”; d) “bo`lak” hisob so`z.

So`zma-so`z tarjima qiladigan bo`lsak “shirin qoplamali tabletkalar” ma`nosi kelib chiqadi. Demak, 糖衣片 *tángyī piàn* – “ustki qismi shakar bilan qoplangan tabletkalar” deya tarjima qilindi.

2) 除去糖衣后 *chúqù tángyī hòu* – ikkita murakkab va bitta soda so`zdan iborat besh bo`g`inli so`z birikmasi.

除 *chú* – a) “yo`qotmoq, bartaraf qilmoq”; b) “bundan tashqari”; c) “bo`luv (matematika), bo`lib bermoq”. Bu erda “ketish, yoqolish” ma`nosida ishlatilgan.

去 *qù* – 1. a) “ketmoq, tashlab ketmoq”; b) “yo`qotish, boy berish”; c) “bartaraf qilish”; d) “uzoqda, ortda qolmoq”; e) “o`tgan, o`tib ketgan, moziy”; f) “bormoq, yurmoq, jo`namoq”; j) gapda fe`ldan keyin kelib, ish-xarakat bajarib bo`lib ketilganlikni bildiradi; h) gapda fe`ldan keyin kelib, ish-xarakatni davom etayotganini ifodalaydi; 2. “rol` ijro etish”. Ko`rib turganimizdek, 去 *qù* juda ham ko`p ma`noli so`zlardan biri bo`lib, gap nima haqida borayotganligiga qarab tarjima qilinadi va biz bajarilayotgan ish-harakatni bajarib bo`lib ketilganligini ifodalovchi grammatik funksiyada xizmat qiluvchi ma`nosini tanlab olindi.

后 *hòu* – 1. a) “orqa tomon”; b) “keyin, so`ng”; c) “nasl, avlod”; 2. “qirolicha, malika”.

Dori hususiyatga asoslangan holda 除去糖衣后 *chúqù tángyī hòu* so`z birikmasini “shakar qobig`i ketgandan so`ng...” deb tarjima qilindi.

3) 显棕褐色 *xiǎn zōnghèsè* – to`rtta mustaqil ma`noga ega bo`lgan so`zlardan tashkil topgan so`z birikmasi.

显 *xiǎn* – a) “aniq, ko`zga ko`rinarli, yorqin”; b) “namoyon qilmoq, ko`rsatmoq, namoyish qilmoq”.

棕 *zōng* – a) “pal`ma daraxti”; b) “pal`ma tolasi”.

褐色 *hès* – “jigarrang”.

Bu bandda dorining ko`rinishi asosida tarjimaga yondoshildi va 显棕褐色 *xiǎn zōnghèsè* - “yorqin qo`ng`ir-jigarrang” ma`nosida to`xtaldi.

白灵片 *báilíngpiàn* dori ko`rsatmasida 性状 *xìngzhuàng* – “ko`rinish va hususiyati” bandida “ushbu mahsulotning ustki qismi shakar bilan qoplangan, shakar qobiq ketgandan so`ng ichi yorqin qo`ng`ir-jigarrang rangda; hidi biroz hushbo`y hamda biroz achchiq tamga ega” deb ta`rif berilgan.

2. Xitoycha dori yo`riqnomalarida 功能主治 *gōngnéng zhǔzhì* bandida keladigan terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjima qilish hususiyatlari

Xitoycha dori yo`riqnomalarini o`zbek tiliga tarjima qilishda ucgraydigan masalalarni hal qilish uchun avvalambor dori yo`riqnomalari tarkibidagi bandlar ustida navbatma-navbat tahliliy ishlarni amalga oshirishda davom etish lozim. Tajribada uchragan 白灵片 *báilíngpiàn* dorisi misolida navbatdagi bandni tarjima masalalarini tahlil qilishga harakat qilindi. Ushbu band barcha dorilarda 功能主治 *gōngnéng zhǔzhì* yoki 功能与主治 *gōngnéng yǔ zhǔzhì*, ya`ni “asosiy vazifasi” deb nomlanadi. Yuqorida barcha bandlar haqida qisqacha umimiy ma`lumotlar berib o`tilganda mazkur band ikki so`zdan iborat bu`lgan so`z birikmasi ekanligi haqida aytib o`tilgan edi. “Asosiy vazifasi” bandida mazkur dorining qaysi kasalliklarda qo`llanilishi mumkinligi, uning asosiy funksiyalari, ta`sir doirasi haqida ma`lumot beriladi.

Tadqiqotning oldiga qo`yilgan maqsadi xitoy dori yo`riqnomalarida uchraydigan “asosiy vazifasi” bandi tarjimasiga qay tarzda yondoshish, ya`ni barchaga ma`lumki dori qanchalik kuchli ta`sirga ega bo`lmasin, uni kerakli kasalliklarda, o`z o`rnida to`g`ri foydalanilmasa u albatta bir qancha salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shunga ko`ra xitoy dorilarini ham qaysi kasalliklarda foydalanish mumkinligi hamda uning ta`sir doirasi to`g`ri va aniq tarjima qilinishi muhim ahamiyatga ega. Tarjimaga to`g`ri yondoshishdan tashqari 功能主治 *gōngnéng zhǔzhì* “asosiy vazifasi” bandi tarkibida

uchraydigan soʻzlarni tarjima qilishdan tashqari leksik-semantik tahlil qilishni ham vazifalar qatoriga kiritilgan.

I. 白灵片 *báilíngpiàn* dorisi misolida tahlil qilinadigan boʻlsa, ushbu dorining “asosiy vazifasi” bandida uning ikkita eng asosiy vazifalari hamda bitta kasallik nomi yaʼni qaysi kasallikda qoʻllanilishi mumkinligi koʻrsatib oʻtilgan:

1. 活血化癥 *huó xuè huà yū*. Bu toʻrtta morfemadan iborat boʻlgan toʻrt boʻgʻinli soʻz birikmasi boʻlib, tarjima jarayonida uni tibbiy termin deb nomladik. Ushbu tibbiy termin tarkibidagi har bir soʻz alohida-alohida tahlil qilindi:

活 *huó* – 1) a) “tirik, hayot, yashamoq”; b) “qutqarmoq”; c) “jonli”; 2) a) “mehnat”; b) “mahsulot”.

血 *xuè* – “qon” maʼnosini anglatib, bir maʼnoli soʻz hisoblanadi.

化 *huà* – 1) a) “aylantirmoq, oʻzgartirmoq”; b) “erimoq”; c) “hazm qilmoq”; d) “yondirmoq”; e) “kimyo”; 2) “sadaqa soʻramoq”.

癥 *yū* – bu qadimgi xitoy tiliga oid soʻz, yaʼni muomilada deyarli foydalanilmaydigan soʻzlardan biri boʻlib, “quyulib qolgan qon (tromb)” maʼnosini anglatadi. Shuni taʼkidlab oʻtish joizki tibbiy hamda farmaceutik terminlarni ifodalaydigan soʻzlarda haligacha qadimgi xitoy tiliga oid soʻzlardan keng foydalaniladi. Mana shu sabablarga asoslangan holda bevosita dori tarjima ishlari bilan shugʻullanadigan tarjimon tibbiy maʼlumotga ega boʻlishidan tashqari qadimgi xitoy tili venyan bilan yaxshi tanish boʻlishi maqsadga muvofiqdir.

Toʻrttala soʻzning barcha maʼnolarini oʻrganib chiqqan holda ularning ushbu tibbiy termin uchun eng yaqin maʼnolari tanlab olindi: 活 *huó* – “tirik, hayot, yashamoq”, 血 *xuè* – “qon”, 化 *huà* – “erimoq”, 癥 *yū* – “quyulib qolgan qon (tromb)”.

Aksariyat lugʻatlarda meditsina hamda farmatsevtikaga oid soʻzlar mavjud boʻlmaganligi sababli tarjimaga tibbiy maʼlumotlarga tayanga holda yondoshishga harakat qilindi. 活血化癥 *huó xuè huà yū* – “qonning hayotiy

funksiyalarini qayta tiklaydi”, biroz aniqlik kiritiladigan bo`lsa, qonda hosil bo`lgan quyqalarni (tromblarni) eritib qonni suyultiradi, mana shu jarayon qonning hayotiy funksiyalarini qayta tiklanishiga olib keladi.

2. 增加光敏作用 *zēngjiā guāngmǐn zuòyòng*. Ushbu so`z birikmasi o`rganilayotgan dorining ikkinchi asosiy funksiyasi hisoblanib, u uchta morfema hamda oltita bo`g`indan tashkil topgan.

增 *zēng* – “oshirmoq, orttirmoq” ma’nosiga ega.

加 *jiā* – a) “qo`shmoq, plyus (qo`shuv)”; b) “oshirmoq, qo`shmoq”; c) “qo`ymoq, bajarmoq”; d) “qilmoq, o`tkazmoq, shug`ullanmoq”.

增 *zēng* hamda 加 *jiā* o`zaro qo`shilib murakkab so`z hosil qiladi, biroq ular qo`shilishi natijasida yangi ma’noli so`z yasalmaydi, aksincha o`z ma’nolarini saqlab qolgan holda 增加 *zēngjiā* – “oshirmoq, orttirmoq, kuchaytirmoq” ma’nolarini anglatadi.

光 *guāng* – a) “nur, yorug`lik”; b) “yaraqlash, yaltirash, jilo”; c) “shuhrat, shon, sharaf, hurmat”; d) “tekis, silliq”; e) biror narsani ohirigacha, qoldiqsiz yo`q qilish; f) “yalang, yalang`och”; g) “faqatgina, -gina”.

敏 *mǐn* – “sezuvchanlik, ta’sirchanlik” ma’nosini anglatadi.

光 *guāng* bilan 敏 *mǐn* so`zlari ham o`zaro qo`shilib, yangi so`z hosil qiladi. 光 *guāng* so`zi ko`p ma’noli so`z bo`lganligi uchun ulardan “nur, yorug`lik” ma’nosini tanlab olib, 光敏 *guāngmǐn* – “yorug`likka sezuvchanlik” deb tarjima qildik.

作 *zuò* – a) “turmoq, ko`tarilmq”; b) “yozmoq, ijod qilmoq”; c) “qilmoq, uyushtirmoq”; d) “asar, ijod mahsuli”; e) biror ko`rinishga kirmoq, tusga, holatga kirmoq; f) “hisoblamq, ... sifatida”.

用 *yòng* – a) “qo`llamoq, tadbiiq etmoq, foydalanmoq, ishlatmoq”; b) “xarajat qilmoq, sarf qilmoq”; c) “chiqim, xarajat”; d) “ishlatish, qo`llash, iste’mol qilish”; e) “zaruriyat, keraklik”; f) “emoq, ichmoq”.

Bu ikki soʻz 作 *zuò* hamda 用 *yòng* oʻzaro birikib murakkab soʻz hosil qiladi. 作用 *zuòyòng* – a) “taʼsir etmoq, kor qilmoq”; b) “taʼsir”; c) “rol, ahamiyat, taassurot, taʼsirini oʻtkazish, foyda”; d) “maʼnoli” kabi bir qator maʼnolarga ega boʻlib, ular orasidan eng munosibi “rol” maʼnosi deb tanlandi.

Xitoy tilining oʻziga xos jihatlari juda koʻp, ulardan eng koʻp uchrab turadigani bu xitoy tilida soʻzma-soʻz tarjima usulidan foydalanib boʻlmasligidir, bu tarjima qilinayotgan til meʼyorlarida ham bir muncha xatoliklarga olib keladi, shu boisdan xitoy tili kontekst, yaʼni matn mazmuniga qarab tarjima qilinadi. Ushbu soha ham bundan mustasno boʻlmagan holda tarjimaga yondoshilgan. 增加光敏作用 *zēngjiā guāngmǐn zuòyòng* – “yorugʻlikka taʼsirchanlikni oshiradi” deb tarjima qilindi. Biroq koʻrinib turibdiki, tarjimada 作用 *zuòyòng* – “rol” soʻzidan foydalanilmagan, buning sababini yuqorida keltirib oʻtildi, tarjima vaqtida bu soʻz tushurib qoldirilgan boʻlsada, maʼno jihatdan oʻz oʻrnida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga koʻra xitoy tilida 作用 *zuòyòng* soʻzini tushirib qoldirish mumkin emas, bu maʼno oʻzgarishiga sabab boʻladi.

3. 用于白癜风 *yòngyú báidiànfēng*. Bu soʻz birikmasi ikki morfemadan va besh boʻgʻindan iborat. Bunda 白灵片 *báilíngpiàn* dorisining qaysi kasallikda qoʻllash mumkinligi koʻrsatilgan.

用 *yòng* soʻzining barcha maʼnolarini yuqorida koʻrsatilib oʻtilgan, bu holatda ham “qoʻllamoq, foydalanmoq” maʼnosini tanlab olamiz.

于 *yú* – a) “ichida, mobaynida”; b) xitoy tili grammatikasida predlog (old qoʻshimcha) vazifasini bajarib, oʻzbek tiliga tarjima qilganda “-ga” joʻnalish kelishigi bilan ifodalanadi; c) mazkur maʼnosida ham old qoʻshimcha (predlog) boʻlib, oʻzbek tiliga tarjima qilinganda “-dan” chiqish kelishigi vazifasini bajaradi; d) “(kimdir, nimadir) uchun”; e) ushbu maʼnosida ham old qoʻshimcha hisoblanib, oʻzbek tilidagi “-ga koʻra ” soʻziga toʻgʻri keladi; f) “koʻra, qaraganda” solishtirish, taqqoslash maʼnosida qoʻllaniladi; g) old qoʻshimcha boʻlib, majhul nisbatni ifodalashda ishlatiladi.

Ko`rib turilganidek aksariyat vazifasi grammatik funkciyalarni bajarishga qaratilgan 于 *yú* mustaqil ma'noga ega emas, boshqa mustaqil ma'noli so'zlar bilan qo'shilib so'z yasashi mumkin.

白 *bái* – a) “oq rang”, b) “aniq, aniqlamoq”, c) “toza, tiniq”, d) “behuda, foydasiz”, e) “bepul, tekin” ma'nolari bor. Ushbu so'zning barcha ma'nolari orasidan “oq” rang ma'nosi tanlab olindi.

癩 *diàn* – teriga siyohrang yoki oq rang dog` tushadigan kasallik.

风 *fēng* – a) “shamol”; b) “quritilgan, shamolda quritilgan”; c) “odat”; d) “xabar, darak, ovoza” ma'nolariga ega.

白 癩 风 *báidiànfēng* uchta mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlar umumlashgan holda yangi so'z hosil qiladi. Bu so'z tibbiy terminlar qatoriga qo'shildi. Meditsina tilida “leykodermiya” deb yuritiladi, ya'ni “teriga oq tushishi (pes)”.

用于白癩风 *yòngyú báidiànfēng* so'z birikmasini to'liq tarjima qilinganda “leykodermiyada qo'llaniladi”, ushbu tarjimada 于 *yú* bo'g'iniga to'xtaladigan bo'linsa, 于 *yú* bu erda yana bir o'ziga xos grammatik funksiyani bajarmoqda, aniqrog'i o'zbek tilidagi “-da” o'rin-payt kelishigi vazifasida qo'llanilgan.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, 白灵片 *báilingpiàn* dorisini teriga oq tushishi kabi kasalliklarda, yorug'likka ta'sirchanlikni oshirishda hamda qonning hayotiy funksiyalarini qayta tiklashda qo'llash mumkin.

Mazkur paragrafda xitoy dori yo'riqnomalarida uchraydigan 功能主治 *gōngnéng zhǔzhì* “asosiy vazifasi” bandini tarjima qilishda qay yo'sinda yondoshish lozimligini yoritishga, uning dolzarbligi hamda ahamiyatiga qisqacha to'xtalib o'tildi. Tajribada qo'llanilgan dorining funksiyasini, ta'sir doirasini tarjima qilishdan tashqari tarkibida uchragan so'zlarni barcha ma'nolarini batafsil yoritgan holda komponentlarni bir – biriga o'zaro bog'lashni ham o'rganib chiqildi. Har bir so'zni ma'no jihatdan chuqur o'rganib, ular mantiqan bir-biriga bog'landi. Tahlil natijasida 白灵片 *báilingpiàn* dori

ko'rsatmasida keltirilgan ikkita asosiy vazifasi hamda bitta mazkur dori qo'llanilishi tavsiya etilgan kasallik nomini tarjima qilindi.

3. Xitoy dori yo'riqnomalarida “nojo'ya ta'siri”, “ehtiyotkorlik choralari”, “qadoqlanishi”, “yaroqlilik muddati” hamda “saqlanishi” bandlarida keladigan terminlarni leksik-semantik tahlili va tarjimasi

I. Barcha dorilarda uchragani kabi xitoy dori yo'riqnomalarida ham 不良反应 *bùliáng fǎnyìng* – “nojo'ya ta'siri” bandi mavjud bo'lib, bu bandida dori iste'mol qilingach kelib chiqishi mumkin bo'lgan noxush holatlar ko'rsatiladi. Xitoy dorilari tabiiy mahsulotlarga asoslangan bo'lganligi sababli salbiy ta'siri deyarli uchramaydi. Shunga ko'ra yo'riqnomalarda 尚不明确 *shàngbù míngquè* degan birikma ko'p uchraydi. Birikmadagi har bir so'zni alohida leksik-semantik jihatdan o'rganilsa quyidagi so'z birikmasini ko'rish mumkin:

尚 *shàng* – “shu kunga qadar, shu choqqacha”;

不 *bù* – “yo'q” inkor ma'nosini anglatadi;

明 *míng* – 1. a) “yorug', yorqin, aniq”; b) “aniq, tushunarli”; c) “biror bir narsa haqida tushunchaga ega bo'lmoq”; d) “ochiqchasiga, ochiqdan-ochiq”; e) “ko'rish qobiliyati”; 2. “kelgusi, navbatdagi”. Barcha ma'nolar orasidan “aniqlamoq, aniq” tanlab olindi;

确 *què* – “aniqlik, xaqiqiylik”;

明确 *míngquè* – bu erda 明 *míng* hamda 确 *què* bir xil ma'no anglatuvchi ikki morfema qo'shilib bitta so'z bo'lib kelgan holda, birgalikda “aniqlamoq” degan ma'noni bildiradi.

尚不明确 *shàngbù míngquè* – “hali aniqlanmagan” deb tarjima qilinadi. Mazkur so'z birikmasi barcha salbiy ta'siri aniqlanmagan xitoy dori yo'riqnomalarida shu tarzda uchraydi.

II. Bandlar tahlilining ketma-ketligi bo'yicha navbatdagi band 禁忌 *jìnjì* – “ta’qiqlangan holatlar”. Bu bandda mazkur dorini qabul qilish mumkin bo’lmagan holatlar ko’rsatiladi. Xitoy dori yo’riqnomalarini tarjima qilish davomida shular aniqlandiki, ta’qiqlangan holatlari mavjud bo’lmagan dori yo’riqnomalarining 禁忌 *jìnjì* – “ta’qiqlangan holatlar” bandida yuqorida tahlil qilgan 不良反应 *bùliáng fǎnyìng* – “nojo’ya ta’siri” bandida berilgani kabi 尚不明确 *shàngbùmíngquè* – “hali aniqlanmagan” so’z birikmasi uchraydi. Biroq ta’qiqlangan holatlari mavjud bo’lgan dorilar ham tajribada uchragan, quyida ularning ko’rinishi tahlil qilindi.

百肤康 *Bǎifūkāng* dorisi yordamida tahlil amalga oshirildi, mazkur dorining 禁忌 *jìnjì* – “ta’qiqlangan holatlar” bandida “勿入粘膜，皮肤过敏者勿用，孕妇禁用。” *wùrù niánmó, pífū guòmǐnzhě wùyòng, yùnfù jìnyòng* jumlasini berilgan:

勿 *wù* – ta’qiqlash, inkor ma’nosini bildiradi;

入 *rù* – a) “kirmoq”; b) “-da” qo’shimchasi (biror bir narsaning ichida); c) “kirmoq, a’zo bo’lmoq”; d) “daromad, kirim”; e) qadimgi xitoy tilida to’rtinchi ohang. Bu ko’p ma’noli so’z bo’lganligi sababli uni “kirmoq” ma’nosi tanlandi;

粘 *nián* – “yopishqoq, elimshak”;

膜 *mó* – a) “po’st, jild, qobiq, parda”;

粘膜 *niánmó* – “shilimshiq qobiq”

勿入粘膜 *wùrù niánmó* – “badanning shilliq qobiqli qismiga surtish ta’qiqlanadi” deb tarjima qilindi. Mazkur so’z birikmasi tarkibidagi so’zlar orasida “surtmoq” ma’noli so’z mavjud emas edi, biroq o’rganilayotgan dori surtma, ya’ni maz ko’rinishida bo’lganligi sababli 入 *rù* – “kirmoq” so’zini kontekst bilan bog’lagan holda “surtmoq” deb tarjima qilindi.

皮 *pí* – “teri, tashqi qatlam”;

肤 *fū* – “teri”;

皮肤 *pífū* – 皮 *pí* hamda 肤 *fū* birgalikda asl ma'nolarini saqlab qolgan holda bitta soʻzni hosil qilib “teri, teri qatlami” ma'nosini bildiradi.

过 *guò* – a) “oʻtmoq, koʻchmoq”; b) “tashimoq, etkazib bermoq”; c) “oʻtkazmoq”; d) “hayot kechirmoq, yashamoq”; e) “oshirmoq”; f) “haddan tashqari, benihoya”;

敏 *mǐn* – a) “mohir, chaqqon, epchil, ildam”; b) “topqir, serfaxm, hozirjavob, ogoh, ”;

过敏 *guòmǐn* – “anafilaktik holat, allergiya” ma'nosini anglatadi.

者 *zhě* – kasb-hunar nomlarini yasovchi qoʻshimcha;

过敏者 *guòmǐnzhě* – allergiya soʻziga 者 *zhě* qoʻshimchasini qoʻshish orqali “allergiyasi bor boʻlgan odam” soʻz birikmasi hosil boʻladi, lekin xitoy tilida 过敏者 *guòmǐnzhě* bir soʻz hisoblanadi.

用 *yòng* - a) “qoʻllamoq, tadbiq etmoq, foydalanmoq, ishlatmoq”; b) “xarajat qilmoq, sarf qilmoq”; c) “chiqim, xarajat”; d) “ishlatish, qoʻllash, isteʼmol qilish”; e) “zaruriyat, keraklik”; f) “emoq, ichmoq”.

勿用 *wùyòng* – “qoʻllash, foydalanish mumkin emas” degan ma'noga ega;

皮肤过敏者勿用 *pífū guòmǐnzhě wùyòng* – “terisida allergiyasi bor insonlar qoʻllashi mumkin emas” deb tarjima qilindi.

孕 *yùn* – “homiladorlik, ogʻirlik”;

妇 *fù* – “ayol, xonim”;

孕妇 *yùnfù* – yuqoridagi ikki bir ma'noli soʻzlar “homilador ayol” ma'nosini anglatadi;

禁用 *jìnyòng* – “qoʻllash ta'qiqlanadi”;

孕妇禁用 *yùnfù jìnyòng* – “homilador ayollar qoʻllashi ta'qiqlanadi” deb tarjima qilinadi.

Demak, 百肤康 *Bǎifūkāng* dorisi yoʻriqnomasidagi 禁忌 *jìnjì* – “ta'qiqlangan holatlar” bandida keltirilgan “勿入粘膜，皮肤过敏者勿用，孕妇禁用。” *wùrù niánmó, pífū guòmǐnzhě wùyòng, yùnfù jìnyòng* jumlasini

“badanning shilliq qobiqli qismiga, terisida allergiyasi bor hamda homilador ayollar qo'llashi ta'qiqlanadi” ko'rinishida tarjima qilindi.

III. Dori yo'riqnomalarning navbatdagi bandi 主意事项 *zhǔyì shìxiàng* – “ehtiyotkorlik choralari”, bu band hamma dorilarda ham uchrayvermaydi, uni 百 肤康 *Bǎifūkāng* dorisi misolida tahlil amalga oshirildi:

1. 五岁以下儿童勿用。 *wǔsuì yǐxià értóng wùyòng.*
2. 对本品过敏者禁用。 *Duìběnpǐn guòmǐnzhě jìnyòng.*
3. 本品为外用品，勿口服。 *Běnpǐn wéi wàiyòngpǐn, wù kǒufú.*
4. 本品不能入口，眼，耳，鼻腔。 *Běnpǐn bùnéng rùkǒu, yǎn, ěr, bíqiāng.*
5. 将本品放在儿童不能接触得到的地方。 *Jiāng běnpǐn fàng zài értóng bùnéng jiēchù dédào de dìfāng.*
6. 五岁以上儿童必须在成年人监护下先试用后再使用。 *wǔsuì yǐshàng ng értóng bìxū zài chéngniánrén jiānhùxià xiān shìyòng hòu zài shǐyòng.*
7. 如正在试用其他药品，使用本品前请咨询医师或药师。” *rúzhè ng zài shìyòng qítā yàopǐn, shǐyòng běnpǐn qiánqǐng zīxún yī yīshī huò yàoshī.*

1. 岁 *suì* – “yil, yosh”;

以 *yǐ* – a) “olmoq, qo'llamoq”; b) “ko'ra, binoan”; c) “sababdan”; d) “shunga ko'ra, shu asnoda”;

下 *xià* – 1) a) “past, tagida”; b) “navbatdagi, kelgusi”; c) “qo'l ostida, yordami ostida”; d) “qandaydir vaqt mobaynida”; e) “tomon”; 2) a) “tushmoq, pastga tushmoq”; b) “bormoq, qulamoq”; c) “bermoq, jo'natmoq”; d) “ketmoq, chiqib ketmoq”; e) “echmoq, olib tashlamoq”; f) “egallamoq, olmoq”; j) “yon bosmoq, joy bermoq”; 3) hisob so'z “marta, ozgina”. ushbu so'zning “past, kichik” ma'nosi tanlab olindi;

以下 *yǐxià* – “quyi, past, kichik” ma'nolarini anglatadi;

儿 *ér* – 1) “o`g`il farzand”; 2) so`z yasovchi qo`shimcha, otdan so`ng kelib, predmet yoki narsani kichiklashtirish ma`nosini bildiradi.

童 *tóng* – “bola, o`g`il bola”;

儿童 *értóng* – “bolalar”;

五岁以下儿童勿用 *wǔsuì yǐxià értóng wùyòng* – “5 yoshdan kichik bo`lgan bolalar foydalanishi mumkin emas” deb tarjima qilindi.

2. 对 – a) “javob bermoq”; b) “qarshi, qarama-qarshi, yuzma-yuz”; c) “mos kelmoq”; d) “solishtirmoq, sinamoq”; e) “to`g`ri, aniq”; f) “qo`shmoq, qo`shimcha qilmoq”; g) “juftlik”; h) “juft narsalar uchun hisob so`z”; i) “haqida, to`g`risida”; j) predlog “-ga” qo`shimchasi ma`nosini anglatadi. Barcha ma`nolar orasidan predlog ma`nosi kontekstga mos keladi.

本 – 1. a) “poya, tana, ildiz”; b) “asos, bosh, manba”; c) “tuzish, negiz”; d) “capital, pul”; e) “asosiy, eng muhim”; f) “boshida, avvaliga, o`z vaqtida”; j) “bizning, o`zimizning”; h) “ushbu, mazkur, hozirgi”; 2. a) “daftar”; b) “bosma, nashr, bosmaxonada bosilgan nusxa (ottisk)”; c) kitoblarga nisbatan qo`llaniladigan hisob so`z; d) kino qismlariga nisbatan qo`llaniladigan hisob so`z “qism” kabi ma`nolarni o`zida mujassam etgan. Ko`rinib turganidek bu so`z ma`nolarga juda boy, kontekstdan kelib chiqqan holda 本 *běn* so`zining “ushbu, mazkur, xozirgi” ma`nosi tanlab olindi.

品 *pǐn* – a) “predmet, narsa, mahsulot”; b) “hil, nav, daraja”; c) “axloqiy sifat, axloq, inson qadr-qimmati”; d) “tatib ko`rmoq, narsalarning mazasiga qarab sifatini belgilash (degustatsiya), baho bermoq”; e) “chalmoq” ma`nolarga ega, bular orasidan birinchi “mahsulot” ma`nosi tanlandi.

本品 – “mazkur mahsulot” deb tarjima qilindi.

过敏者 *guòmǐnzhě* – “allergiyasi bor bo`lgan odam”;

禁用 *jìnyòng* – “qo`llash ta`qiqlanadi”;

对本品过敏者禁用 *Duì běnpǐn guòmǐnzhě jìnyòng* – “mazkur mahsulotdan allergiyasi bor insonlarga qo`llash taqiqlanadi”.

3. 为 *wéi* – a) “xarakatlanmoq, bajarmoq”; b) “sifatida, deb”; c) “aylanmoq, o`zgarmoq”; d) “bo`lmoq, -dir”. Qadimgi xitoy tilida 为 *wéi* so`zi “bo`lmoq, -dir” ma`nosida keng qo`llanilgan, biroq zamonaviy xitoy tilida 为 *wéi* o`rnini 是 *shì* fe`l bog`lovchisi egallagan. Ayrim ilm-fanga tegishli kitobiy tilda hamda ko`rib turilganidek farmasevtik yo`nalishda xanuzgacha foydalanib kelinmoqda. Shu sababli 为 *wéi* so`zining “bo`lmoq, -dir” ma`nosini tanlandi.

本品为 *běn pǐn wéi* birgalikda “mazkur mahsulot...-dir” deb tarjima qilinadi.

外 – a) “tashqi, ustki”; b) “begona, boshqa”; c) “chet mamlakat”; d) “bundan tashqari”. Bu so`zning birinchi “tashqi, ustki” ma`nolari tanlab olindi;

口 – a) “og`iz”; b) “kirish qism”; c) “teshik, g`or”; d) “odamlarga nisbatan hisob so`z”, tarjimaga “og`iz” ma`nosi mos keladi;

服 – 1) a) “kiyim, ko`ylak”; b) “qabul qilmoq, ichmoq”; c) “amin bo`lmoq, ko`nmoq”; 2) “hisob so`z”. ushbu so`zning “qabul qilmoq, ichmoq” ma`nolari olindi;

口服 – a) “og`izda rozilik bildirish”; b) “og`iz orqali qabul qilish”, bunda ikkinchi ma`nosi tanlandi;

本品为外用品，勿口服 *Běnpǐn wéi wàiyòngpǐn, wù kǒufú* – “mazkur mahsulot tashqi foydalanish uchun, og`iz orqali qabul qilish mumkin emas” deb tarjima qilindi.

4. 能 *néng* – a) “qobiliyat, kuch”; b) “qila olmoq, qurbi etmoq”; c) “mumkin, bo`lishi mumkin”, mana shu so`nggi ma`nosidan tahlilda foydalanildi;

入口 *rùkǒu* – a) “import, olib kirmoq”; b) “kirish joyi”;

眼 *yǎn* – a) “ko`z”; b) “teshik, ochiq joy”;

耳 *ěr* – “quloq”;

鼻 *bí* – a) “burun”; b) “asos solmoq, yaratmoq”;

腔 *qiāng* – a) “bo`shliq”; b) “kui, ohang”;

鼻腔 *bíqiāng* – “burun bo`shlig`i”;

本品不能入口，眼，耳，鼻腔。 *Běnpǐn bùnéng rùkǒu, yǎn, ěr, bíqiāng* – “mazkur mahsulot ogʻiz, koʻz, quloq va burun boʻshligʻiga kirishi mumkin emas”.

5. 将 *Jiāng* – a) “shaxmat oʻynamoq”; b) “tirikligicha qoʻlga kiritmoq”; c) gapda grammatik vazifa bajarib, feʼlning kelasi zamondaligini ifodalaydi;

放 *fàng* – a) “qoʻyib yubormoq, chiqarmoq, ozod qilmoq”; b) “chiqarmoq, oʻq uzmoq, otmoq”; c) “gullamoq, yashnamoq”; d) “qoʻymoq, joylamoq”;

在 *zài* – a) “yashamoq, tirik boʻlmoq”; b) “(biror bir joyda) boʻlmoq, bor boʻlmoq”; c) “mansub, aʼzo boʻlmoq”; d) gapdagi predlog vazifasi orqali “joy, vaqt”ni ifodalaydi; e) “xozir” ayni vaqtda biror bir ish sodir boʻlayotganini bildiradi.;

放 *fàng* – “qoʻymoq, joylamoq”, 在 *zài* – joy nomidan oldin qoʻllanuvchi predlog maʼnolari tanlab olindi.

儿童 *értóng* – “bolalar”;

不能 *bùnéng* – “mumkin emas”;

接 *jiē* – a) “yaqin atrof, yonma-yon”; b) “bogʻlamoq, qoʻshmoq”; c) “tutib olmoq, ilib olmoq”; d) “qabul qilmoq, olmoq”; e) “kutib olmoq”; f) “(kimni, nimani) oʻrnini bosmoq, oʻrin almashmoq”;

触 *chù* – “urilmoq, tegmoq”;

接触 *jiēchù* – a) “tegmoq, qoʻl tekkizmoq, ushlamoq”; b) “koʻrishib qolmoq, uchrashmoq, aloqa qilmoq” maʼnolari orasidan “tegmoq” tanlandi;

得 *dé* – a) “erishmoq, olmoq”; b) “barobar” matematik birlik; c) ogʻzaki nutqda “yaxshi, boʻladi, shunday”; d) “ehtimol, boʻlishi mumkin”;

到 *dào* – a) “-gacha” qoʻshimchasi; b) “kelmoq, etib kelmoq”; c) “bormoq, joʻnamoq”;

得到 *dédào* – “olmoq, erishmoq” maʼnosiga ega;

地 *dì* – a) “er”; b) “quruqlik, er, oʻlka”; c) “maydon”; d) “tuman, joy”;

方 *fāng* – 1) a) “kvadrat, kub”; b) “daraja”; c) “kvadrat, kub” uchun hisob soʻz; 2) a) “tomon”; b) “joy”; 3) “usul, metod”; 4) a) “hozir, ayni vaqtda”; b) “endigina”;

地方 *dìfāng* – “joy” maʼnosini anglatadi;

将本品放在儿童不能接触得到的地方。 *Jiāng běnpǐn fàng zài értóng bùnéng jiēchù dédào de dìfāng* – “mazkur mahsulot bolalar tegmaydigan joyda saqlansin”.

6. 五岁 *wǔsuì* – “5 yosh”;

上 *shàng* – 1) a) “yuqori, ustki”; b) “oily, eng yaxshi”; c) “oʻtgan, oldin”; d) “ustida, tepasida”; e) “-da” qoʻshimchasi; 2) a) “yuqoriga koʻtarilmoq, chiqmoq”; b) “bormoq”; c) “olgʻa!”; d) “tortmoq (taom)”;

以上 *yǐshàng* – “katta, koʻp” maʼnosi kelib chiqdi;

必 *bì* – a) “dolzarb, muhim”; b) “albatta, kerak”;

须 *xū* – a) “dolzarb, muhim”; b) “moʻylov”;

必须 *bìxū* – ikki bir xil maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar oʻzaro bogʻlangan holda “albatta, muhim, kerak, darkor” maʼnolarini saqlab qoladi;

成 *chéng* – a) “uddalamoq, bajarmoq”; b) “erishmoq, natija, muvofaqqiyat”; c) “oʻrnatilgan, barpo etilgan, eski”; d) “rozilik bildirmoq, xop, yaxshi”; e) “etarli, qoniqarli”; f) “oʻn foiz”;

年 *nián* – a) “yil”; b) “yosh”; c) “hosil”; d) “yangi yil”;

成年 *chéngnián* – “voyaga etmoq”;

人 *rén* – “inson, odam, kishi”;

成年人 *chéngniánrén* – “voyaga etgan shaxs, katta odam” maʼnosini bildiradi;

监 *jiān* – “kuzatmoq, tekshirmoq”;

护 *hù* – a) “himoya qilmoq, qoʻriqlamoq, avaylamoq”; b) “yonini olmoq, yoqlamoq, yoniga tushmoq”;

监护 *jiānhù* – “nazorat qilmoq, gʻamxoʻrlik qilmoq” maʼnosiga ega;

先 *xiān* – “avval, birinchi navbatda, boshidan”;

试 *shì* – “urinib ko`rmoq, qilib ko`rmoq”;

试用 *shìyòng* – “sinab ko`rmoq, amalda sinab ko`rmoq”;

后 *hòu* – a) “orqa, orqa tomon”; b) “keyin, so`ng”; c) “ajdod, nasl”; d) “qirolicha”. Barcha ma’nolar orasidan “keyin, so`ng” ma’nosi tanlab olindi;

再 *zài* – a) “yana, qaytadan, takroran”; b) “shunda, shundan so`ng”;

使 *shǐ* – a) “buyurmoq, boshqarmoq, yubormoq”; b) “foydalanmoq, qo`llamoq, iste’mol qilmoq”; c) “bermoq, ruxsat bermok”; d) “agar, agarda”;

使用 *shǐyòng* – “foydalanmoq, qo`llamoq, iste’mol qilmoq”;

五岁以上儿童必须在成年人监护下先试用后再使用。 *wǔsuì yǐshàng értóng bìxū zài chéngniánrén jiānhùxià xiān shìyòng hòu zài shǐyòng* – “5 yoshdan katta bo`lgan bolalar avval kattalar nazorati ostida sinab ko`rib undan so`nggina foydalanishlari darkor.”

Mazkur jumlada 在 *zài* to`g`ridan to`g`ri tajriba qilinmadi, sababi 在 *zài* 下 *xià* bilan birgalikda “在 *zài*... 下 *xià*” grammatik konstrukciyasi vazifasini bajarmoqda hamda “(holat, vaziyat)... ostida” ma’nosini bildiradi.

7. 如 *rú* – a) “xuddi, singari”; b) “solishtirmoq”; c) “masalan, misol uchun”; d) “agar, agarda”, tarjimada oxirgi ma’nosi tanlab olindi;

正 *zhèng* – a) “to`g`ri, tekis”; b) “markaziy, bosh”; c) “teng, barobar”; d) “old tomon, yuz tomon”;

正在 *zhèngzài* – “biror bir ish harakat yoki holat ayni vaqtda sodir bo`layotganini ifodalovchi ravish”;

其 *qí* – a) “uniki, ularmiki”; b) “u, ular”;

其他 *qítā* – “boshqa, boshqalar, qolganlar” ma’nosini anglatadi;

前 *qián* – a) “old, bosh”; b) “oldinlamoq, oldinga qadam bosmoq, bormoq”; c) “...-gacha, ...-dan oldin”; d) “oldin, kelasi”;

请 *qǐng* – a) “iltimos qilmoq, yordam so`ramoq”; b) “taklif qilmoq, chaqirmoq”; c) “iltimos, marhamat qilib” ma’nolari mavjud;

咨 *zī* – a) “maslahatlashmoq, fikr almashmoq”; b) “rasmiy munosabat”;

询 *xún* – “so`ramoq, ma`lumot olmoq”;

咨询 *zīxún* – “maslahat so`ramoq, maslahatlashmoq, fikr olmoq”;

意 *yì* – a) “fikr, o`y, g`oya”; b) “xoxish, istak”; c) “taxmin, kutilayotgan natija”;

医 *yī* – a) “shifokor, tabib”; b) “medicina, tabobat”; c) “davolamoq”;

师 *shī* – a) “o`qituvchi, usta”; b) “diviziya”;

医师 *yīshī* – “shifokor, tabib”;

或 *huò* – a) “bo`lishi mumkin”; b) “yoki, yoxud”;

药师 *yàoshī* – “farmacevt, dorishunos”;

如正在试用其他药品，使用本品前请咨询意医师或药师。 *rú zhèngzài shìyòng qítā yàopǐn, shǐyòng běnpǐn qiánqǐng zīxún yì yīshī huò yàoshī* – “agar boshqa dori bilan bir vaqtda qo`llab ko`rmoqchi bo`linsa, mazkur mahsulotni qo`llashdan avval shifokor yoki farmacevt bilan maslahatlashgan ma`qul” deb tarjima qilindi.

Demak, yuqoridagi tahlil natijasida shunga amin bo`lindiki, 注意事项 *zhǔyì shìxiàng* – “ehtiyotkorlik choralari” bandida nohush holatlarni oldini olish maqsadida mahsulotni qo`llashdan avval e`tibor qaratish lozim bo`lgan belgilar ko`rsatiladi.

IV. Xitoy dori yo`riqnomalarining navbatdagi bandi 贮藏 *zhùcáng* – “saqlanishi”. Ushbu bandda dori qay holatda hamda qanday joyda saqlanishi lozimligi ko`rsatib o`tiladi. Aynan xitoyda ishlab chiqarilgan dorilarda bu band qanday ta`riflanishini 百肤康 *Bǎifūkāng* dorisi yordamida leksik-semantik jihatdan tahlil ishlari o`kazildi: “密封，置阴凉处保存” *mìfēng, zhì yīnliángchù bǎocún*. Mazkur band xitoy dori yo`riqnomalarining deyarli barchasida shu jumla orqali ifodalanadi.

密 *mì* – a) “qalin, zich, maxkam”; b) “yaqin, tiqilinch”; c) “sir”;

封 *fēng* – a) “feodalizm”; b) “mukofotlamoq, qadrlamoq”; c) “yozmoq, bosmoq”;

密封 *mìfēng* – “maxkamlab (germetik) yopilgan” degan ma’noga ega;

置 *zhì* – a) “qo’ymoq, joylamoq, o’rnatmoq”; b) “sotib olmoq, o’zlashtirmoq”. Ushbu holatda “qo’ymoq” ma’nosi tanlandi;

阴 *yīn* – a) “bulutli, qorong’i, g’amgin”; b) “soya”; c) “makkor, ayyor, hiylakor”;

凉 *liáng* – a) “salqin, yangi, sof”; b) “xafa bo’lmoq, kayfiyati tushmoq”;

阴凉 *yīnliáng* – “soya salqin”;

处 *chù* – a) “turmoq, yashamoq”; b) “bo’lmoq, joy olmoq”; c) “jazolamoq”.

Bu so’zning “joy” ma’nosi kontekstga mos keladi;

保 *bǎo* – a) “himoya qilmoq, qo’riqlamoq”; b) “qo’llamoq, saqlamoq, asramoq”; c) “ta’minlamoq”; d) “kafil bo’lmoq, ishontirmoq”;

存 *cún* – a) “yashamoq, mavjud bo’lmoq”; b) “asrab avaylamoq, zahiralamoq”; c) “saqlamoq, qoldirmoq”; d) “oziqlantirmoq”;

保存 *bǎocún* – “asramoq, saqlamoq”;

密封，置阴凉处保存 *mìfēng, zhì yīnliángchù bǎocún* – “maxkamlab yopib, soya-salqin joyda saqlansin” deb tarjima qilindi.

V. Dori yo’riqnomalarini tahlil qilish davomida endi 包装 *bāozhuāng* – “qadoqlanishi” bandini leksik-semantik tahlil qilish orqali o’rganildi. Bu bandda dorining qadoqlanishi qandayligi hamda ichida qancha dori mahsuloti mavjudligi ko’rsatiladi. 白灵片 *báilíngpiàn* dorisining 包装 *bāozhuāng* – “qadoqlanishi” bandida quyidagi jumla keltirilgan: “聚乙烯塑料瓶包装，每瓶 96 片。” *jù yǐxī sùliàopíng bāozhuāng, měi píng 96 piàn*.

聚 *jù* – “yig’moq, to’plamoq” deb tarjima qilinuvchi bir ma’noli so’z;

乙 *yǐ* – 1) a) “i (o’ntalik siklik belgilarning ikkinchisi)”; b) “ikkinchi”; 2) “i” xitoylarning notaviy belgisi, ya’ni “si”;

烯 *xī* – “alken” kimyoviy modda;

乙烯 *yǐxī* – “eten, etilen” kimyoviy modda;

塑 *sù* – a) “yasamoq, yaratmoq”; b) “plastmassa, elim”;

料 *liào* – a) “taxmin qilmoq, chamalamoq, oldindan koʻrmoq, payqamoq”;
b) “material, maʼlumot”; c) “ozuqa, em-xashak”;

塑料 *sùliào* – “plastmassa, plastic, elim”;

瓶 *píng* – “butilka, shisha, flakon, grafin”;

每 *měi* – a) “har bir, har qaysi, barchasi”; b) “tez-tez, koʻpincha”;

片 *piàn* – a) “varoq, qogʻoz boʻlagi”, b) “qism, joy”, c) “boʻlmoq”, d) hisob soʻz “boʻlak” maʼnolaridan iborat.

“聚乙烯塑料瓶包装，每瓶 96 片。” *jù yǐxī sùliàopíng bāozhuāng, měi píng 96 piàn.* – “etilen plastmassali flakonlarga joylangan, har bir flakonda 96 ta tabletka bor” deb tarjima qilindi.

VI. Xitoy dori yoʻriqnomalarining soʻnggi bandlaridan biri bu 有效期 *yǒuxiàoqī* – “yaroqlilik muddati” hisoblanadi. Ushbu bandda dori mahsuloti ishlab chiqarilgan sana hamda uning yaroqliligi tugaydigan sana yoki ishlab chiqarilgandan soʻng qancha muddat saqlanishi mumkinligi koʻrsatilishi lozim. Bu band ham 白灵片 *báilíngpiàn* dorisi misolida leksik-semantik tahlil amalga oshiriladi: “24 个月” *24 gè yuè*.

个 *gè* – “ta, dona” maʼnosini anglatuvchi hisob soʻz;

月 *yuè* – a) “oy”; b) “oy”;

“24 个月” *gè yuè* – “24 oy” deb tarjima qilindi.

Ikkinchi bob xulosasi

Ikkinchi bob tahlil natijalariga koʻra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Dori yoʻriqnomalarida uchraydigan “koʻrinish va hususiyati” bandining aynan xitoy dorilarida qay tarzda yozilishi, qaysi soʻzlar bilan ifodalanishi hamda tarjimada koʻproq nimalarga ahamiyat berish kerakligi aniqlandi.

2. Xitoy dori ko'rsatmalarining "ko'rinish va xususiyatlari" bandida dori mahsuloti qandayligiga, rangiga, hidiga, mazasiga" e'tibor qaratiladi.

3. "Asosiy vazisasi " bandida mazkur dorining qaysi kasalliklarda qo'llanilishi mumkinligi, uning asosiy funksiyalari, ta'sir doirasi haqida ma'lumot beriladi.

4. xitoy dori yo'riqnomalarida uchraydigan "asosiy vazifasi" bandi tarjimasiga qay tarzda yondoshish, mazkur band tarkibida uchraydigan so'zlarni tarjima qilishda leksik-semantik tahlil qilish zarurligi aniqlandi.

5. Tibbiy hamda farmaceutik terminlarni ifodalaydigan so'zlarda haligacha qadimgi xitoy tiliga oid so'zlardan keng foydalaniladi. Mana shu sabablarga asoslangan holda bevosita dori tarjima ishlari bilan shug'ulanadigan tarjimon tibbiy ma'lumotga ega bo'lishidan tashqari qadimgi xitoy tili venyanni yaxshi bilish maqsadga muvofiqdir.

6. Aksariyat lug'atlarda meditsina hamda farmatsevtikaga oid so'zlar mavjud bo'lmaganligi sababli tarjimaga tibbiy ma'lumotlarga tayanga holda yondoshishga harakat qilindi.

7. Xitoy tilining o'ziga xos jihatlari juda ko'p, ulardan eng ko'p uchrab turadigani bu xitoy tilida so'zma-so'z tarjima usulidan foydalanib bo'lmastir, bu tarjima qilinayotgan til me'yorlarida ham bir muncha xatoliklarga olib keladi, shu boisdan xitoy tili kontekst, ya'ni matn mazmuniga qarab tarjima qilinadi. Farmasevtika sohasi ham bundan mustasno bo'lmagan holda tarjimaga yondoshilgan.

8. Aksariyat vazifasi grammatik funkciyalarni bajarishga qaratilgan 于 yú mustaqil ma'noga ega emas, boshqa mustaqil ma'noli so'zlar bilan qo'shib so'z yasashi mumkinligi aniqlandi.

9. 不良反应 *bùliáng fǎnyìng* – "nojo'ya ta'siri" bandida dori iste'mol qilingach kelib chiqishi mumkin bo'lgan noxush holatlar ko'rsatiladi. Xitoy dorilari tabiiy mahsulotlarga asoslangan bo'lganligi sababli salbiy ta'siri deyarli uchramaydi. Shunga ko'ra yo'riqnomalarda 尚不明确 *shàngbù míngquè* degan birikma ko'p uchraydi.

10. 禁忌 *jìnjì* – “ta’qiqlangan holatlar” bandda mazkur dorini qabul qilish mumkin bo’lmagan holatlar ko’rsatiladi. Xitoy dori yo’riqnomalarini tarjima qilish davomida shular aniqlandiki, ta’qiqlangan holatlari mavjud bo’lmagan dori yo’riqnomalarining ushbu bandida yuqorida tahlil qilgan 不良反应 *bùliáng fǎnyìng* – “nojo’ya ta’siri” bandida berilgani kabi 尚不明确 *shàngbùmíngquè* – “hali aniqlanmagan” so’z birikmasi uchraydi. Biroq ta’qiqlangan holatlari mavjud bo’lgan dorilar ham tajribada uchragan va ular leksik-semantik tahlil qilinib, o’zbekcha ekvivalenti berildi.

11. Dori yo’riqnomalarning 注意事项 *zhǔyì shìxiàng* – “ehtiyotkorlik choralari” bandi hamma dorilarda ham uchrayvermasligi aniqlandi.

12. Qadimgi xitoy tilida 为 *wéi* so’zi “bo’lmoq, -dir” ma’nosida keng qo’llanilgan, biroq zamonaviy xitoy tilida 为 *wéi* o’rnini 是 *shì* fe’l bog’lovchisi egallagan. Ayrim ilm-fanga tegishli kitobiy tilda hamda ko’rib turilganidek farmasevtik yo’nalishda xanuzgacha foydalanib kelinayotganligi aniqlandi.

13. 勿 *wù* – inkor ma’nosini anglatuvchi so’z qadimgi xitoy tiliga mansub bo’lib, zamonaviy xitoy tilining matbuot tili hamda farmasevtik matnlarda ko’p uchrashi aniqlandi.

14. Xitoy dori yo’riqnomalarining 贮藏 *zhùcáng* – “saqlanishi” bandida dori qay holatda hamda qanday joyda saqlanishi lozimligi ko’rsatib o’tiladi. Aynan xitoyda ishlab chiqarilgan dorilarda bu band qanday ta’riflanishini 百肤康 *Bǎifūkāng* dorisi yordamida leksik-semantik jihatdan tahlil ishlari o’kazildi: “密封，置阴凉处保存” *mìfēng, zhì yīnliángchù bǎocún*. Mazkur band xitoy dori yo’riqnomalarining deyarli barchasida shu jumla orqali ifodalanadi.

15. Dori yo’riqnomalarini tahlil qilish davomida 包装 *bāozhuāng* – “qadoqlanishi” bandini leksik-semantik tahlil qilish orqali o’rganildi. Bu bandda dorining qadoqlanishi qandayligi hamda ichida qancha dori mahsuloti mavjudligi ko’rsatiladi.

16. Xitoy dori yo`riqnomalarining so`nggi bandlaridan biri bu 有效期 *yǒuxiàqī* – “yaroqlilik muddati” hisoblanadi. Ushbu bandda dori mahsuloti ishlab chiqarilgan sana hamda uning yaroqliligi tugaydigan sana yoki ishlab chiqarilgandan so`ng qancha muddat saqlanishi mumkinligi ko`rsatilishi aniqlandi.

III bob. Choyning hitoy farmakologiyasidagi o`rni va choy nomlarini leksik-semantik tahlili

1. Xitoy farmakologiyasi va choyning undagi o`rni

Xitoy tabobati necha asrlardan buyon samarali rivojlanib kelishi bevosita kasallikni oldini olish, tashxis qo`yish va davolashda qo`llaniladigan dorivor moddalar bilan chambarchas bog`liqdir. Mazkur tadqiqotning ob`ekti xitoy dori yo`riqnomalari bo`lganligi sababli xitoy farmakologiyasiga chuqurroq nazar solishga harakat qilindi. Shu asnoda xitoy dorishunosligi jahonda etakchilik qilib kelishi sabablarini hamda uning afzallik jihatlarini o`rganishni o`z oldiga ustivor maqsad qilib qo`ydi. Xitoy dori yo`riqnomalarida ko`rsatilgan dorining tarkibiy qismini tahlil qilib o`rganilganda shunga amin bo`lindiki, xitoy dorilari asosan tabiiy dorivor moddalardan, ya`ni dorivor o`simliklar, xayvon to`qimalari hamda biologik va kimyoviy usullar yordamida olingan mineral moddalardan tayyorlanadi va salbiy holatlari deyarli kuzatilmaydi. Xitoy dorilarining kelib chiqishi va qo`llanilish tarixi bir necha ming yilliklarni o`z ichiga oladi. Biroq “xitoy farmakologiyasi” tushunchasi ancha keyin paydo bo`ldi. Bu tushuncha xitoyda mamlakatga evropa medicinasi kirib kelgandagina uni evropa farmakologiyasidan farqlash maqsadida qo`llanila boshlandi.

Xitoy farmakologiyasi tarixiga qisqacha to`xtaladigan bo`linsa, Sya, Shan va Chou davrlaridayoq xitoyda dorivor damlama va qaynatmalar paydo bo`lgan edi. 11 asrda yozib qoldirilgan “shijin” she`rlar to`plamida eng dastlabki dorivor giyohlardan tayyorlangan dorilar haqida ma`lumotlar etib kelgan. Bundan tashqari “huandi neyjin” nomli tibbiy asarda xitoy farmakologiyasining nazariy asoslari bitilgan.

Aynan farmakologiyaga bag`ishlangan xitoydagi eng qadimgi asar 神农本草经 *shén nǒng běn cǎo jīng* (Shennun farmakoepiyasi) hisoblanadi. Ushbu kitob Tsin va Xan sulolasi davrida yozilgan bo`lib, o`sha davrning juda ko`p mashxur tabiblari tajribasi va qo`lyozmalariga asoslangan. Asarga hozirgi

davrga qadar tibbiyotda qo'llanilib kelayotgan dorivor o'simliklarning 365 turi kiritilgan. Mana shu asar asnosida xitoy farmakologiyasi shakllandi desak xato bo'lmaydi.

Tan davrida (618-907) 唐本草 *táng běncǎo* dorishunoslikka oid asar yaratilgan bo'lib, unda 850 tur dorivor o'simliklar suratlari bilan keltirilgan.

Min sulolasi davrida (1368-1644) esa Li Shizhen 27 yil davomida 本草纲目 *běncǎo gāngmù* nomli dorishunoslik asarini tuzishga musharraf bo'ldi. Bunda 1892 tur dorivor o'simliklar va boshqa dorivor moddalar haqida batafsil ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Xitoy xalq respublikasi tashkil etilgandan so'ng (1949 yil) mamlakatda ilmiy izlanishlar yuzasidan katta burilish yuz berdi, jumladan farmakologiya sohasida ham. Bu xitoy farmakologiyasiga ilmiy yondoshishga asos bo'lib xizmat qildi. 1961 yil butun mamlakat bo'ylab farmatsevt olimlar ishtirokida "xitoy farmakologiyasi" deb nomlangan farmakoepiya tuzildi. 1977 yilga kelib "xitoy farmakologiyasi katta ensiklopedik lug'ati" dunyo yuzini ko'rdi, unda xitoy dorishunosligiga tegishli bo'lgan 5767 xildan ortiq dori turlari yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda xitoy farmakologiyasiga oid turli-tuman qo'llanma, gazeta va jurnallar chop etila boshlandi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ilmiy tadqiqot markazlari va o'quv muassasalari tashkil etilishi xitoy farmakologiyasi rivoji uchun katta hissa qo'shdi.

Xitoy katta maydonga ega davlat bo'lganligi sababli iqlim jihatdan ham o'ziga xas, bunday muhit juda ko'p turdagi dorivor o'simliklarni etishtirishga qulay hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar xitoyda dorivor o'simliklarning 8 mingdan ortiq turi mavjud, farmakologiyada xom ashyo sifatida ularning 600 turi keng qo'llaniladi. Mazkur ko'rsatkich tufayli xitoy jahonda birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Xitoy farmakologiyasi mamlakat ichida samarali qo'llanilishdan tashqari, xalqaro bozorda ham mavqei juda baland, xitoy dorilari 80 dan ortiq mamlakatlarga eksport qilinishi fikrimiz dalili bo'lib xizmat qiladi.

Xitoy dori xom ashyosini yig'ish dori tayyorlashning muhim qismi hisoblanib, turli o'simliklar turli xil mavsumda etishtirilib yig'iladi. Odatda

o`simliklar yig`imi etilish davrida hamda gullash boshlanishida terib olinadi. Mevalar yig`imi etilish davrida, ildiz va daraxt po`stlari yig`imi kech kuz yoki erta bahorda o`tkaziladi. Xayvonlardan olinadigan xom ashyo xayvonlarning ko`payish davrida o`tkaziladi. Mineral xom ashyolar esa yil davomida olinishi mumkin. Yig`ilgan dori xom ashyosini quritish va saqlash ham o`ziga hos parvarish talab etadi. Ko`pchilik o`simliklar havoda par yordamida quritiladi hamda salqin, yorug`lik tushmaydigan joyda saqlanadi. Ular xavfsiz bo`lishi va samarasini oshirish uchun foydalanishdan oldin ekspertizaga yuboriladi.

Xitoy farmakologiyasi dunyoni o`ziga jalb qilishining asosiy sababi uning samaradorligidir, bunday samaradorlik esa dorilarni o`ziga hos qo`llash bilan uyg`un holda avloddan avlodga saqlanib kelmoqda. Xitoy dorilari uchun besh xil maza ajratiladi – nordon, taxir, shirin, achchiq, sho`r. xitoy dorilarini qo`llashda xavfsizlik va samaradorlikni ta`minlash maqsadida mazkur dorini qo`llash usuli, qarshi ko`rsatmalarida keltirilgan ma`lumotlarni sinchkovlik bilan o`rganish lozim. Uni boshqa mahsulotlar bilan kirisha olishini ham hisobga olish kerak. Dorini dozalashda bemorning og`irligiga qarab dori miqdori belgilanadi va shu yo`sinda davolash kursi aniqlanadi.

Ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug`ullanuvchi farmatsevtlar farmakologiyaning quyidagi yo`nalishlarida tinimsiz izlanish olib bormoqdalar: dorivor xom ashyo seleksiyasini kuchaytirish, avloddan avlodga o`tib kelayotgan an`anaviy dorilar ishlab chiqarishni yanada kuchaytirish va bunda bioinjenerlikdan foydalanish.

Fikrimiz yakunida shuni aytishimiz mumkinki, xitoy farmakologiyasi xitoy madaniyati bilan uyg`unlashgan holda tub aholiga singib ketgan, shu asnoda davrlar o`tgan sayin rivojlanishda davom etmoqda hamda evropa farmakologiyasidan ustunlik jihatlarini ko`rsatib berdi va bu o`z o`rnida butun dunyoga o`z ta`sirini ko`rsatmay qolmaydi.

2.Xitoy tilida choy va choy turlarini anglatadigan soʻzlar – farmakalogik termin sifatida

Xitoy farmakalogiyasi tabiiy giyoxlarga asoslangan bulganligi sababli farmakologiya sohasida qoʻllaniladigan tabiatan sof maxsulotlarining turlari behisob. Bu oʻrinda choy nafaqat dori-darmon soxasida balki xitoy madaniyatida ham munosib joy egallaydi. Barchamizga maʼlumki, Xitoy – choy vatani hisoblanib, u xitoyliklarning hayot tarzi hamda madaniyati timsoliga aylanib qolgan.

Tadqiqotda mazkur boʻlimining maqsadi Xitoy choyi va uning turlarini anglatadigan soʻzlarni farmakalogik termin sifatida oʻrganishdir. Bunda choyni xushboʻy ichimlik sifati bilangina chegaralanib qolmay, uni Xitoy dorishunosligida shifobaxt giyoh sifatida foydalanilishini nazarda tutgan holda bir necha Xitoy choyi bilan bogʻliq boʻlgan terminlarni leksik-semantik tahlil qilishga erishildi.

Xitoy choylari qadimgan juda koʻp shifobaxsh xususiyatlariga ega boʻlib choy turlariga qarab turli kasalliklarda qoʻllaniladi, xattoki saratonning bir qancha koʻrinishlarida samarali taʼsir koʻrsatadi.

茶 *chá* – “choy” soʻzning toʻliq koʻrinishi 茶树 *cháshù* – (yaʼni 茶 *chá* – “choy”, 树 *shù* – “daraxt”) “choy daraxti”. Choy soʻzining etimologiyasiga chuqurroq nazat tashlaydigan boʻlsak, taxminam eramizdan avvalgi VIII asrlarda choy maʼnosini anglatuvchi maxsus soʻz mavjud boʻlmagan¹⁷, boshqa achchiq giyoxlar bilan bir qatorda uni ham 荼 *tú* – qadimgi manbalarga koʻra achchiq damlamalar deb nomlashgan.

Keyinchalik choy oʻsimligini boshqa giyoxlardan ajrata boshlashgandan soʻng uni 檟苦荼 *jiǎkǔtú* yoki qisqartirilgan hollarda 苦荼 *kǔtú*; 薺 *chuǎn* soʻzlari orqali ifodalab kelingan.

檟 *jiǎ* – “qadimgi xitoy tilida doim yashil tusda turuvchi choy daraxtining nomi”;

¹⁷ <http://ru.wikipedia.org>

苦 *kǔ* – a) “achchiq”, b) “g`am, qayg`u”;

檟苦茶 *jiǎkǔtú* – “doim yashil achchiq giyoh” ma`nosini anglatadi.

薺 *chuǎn* – “choyning kechki hosili”.

Qadimgi xitoyda choy deb atalmish xushbo`y ichimlik keng tarqalgan davrga kelib uni 茗 *míng* so`zi bilan atay boshlashdi. 茗 *míng* – a) “choy daraxti novdasining kurtagi”, b) “choy” ma`nolarini bildiradi. 茶 *tú* va 檟 *jiǎ* so`zlaridan farqli o`laroq 茗 *míng* so`zi bugungi kungacha Tayvan hamda Xitoyning ayrim viloyatlarida choy ma`nosida qo`llaniladi.

Eramizdan avvalgi VIII asr oxirlariga kelib 茶 *tú* ieroglifi o`rmini 茶 *chá* egalladi.

Tan davrining mashxur shoiri Luyu o`zining “choy haqida qasida”sida<sup>18</sup> choyni ifodalashda qo`llaniladigan bir qancha so`zlarni keltirgan, uning yozishicha: “其名 *qímíng*: 一日茶 *yīrìchá*, 二日檟 *èrrìjiǎ*, 三日薺 *sānrìshè*, 四日茗 *sìrímíng*, 五日薺 *wúrìchuǎn*.”

薺 *shè* – bu so`zni Sichuan axolisi 茶 *tú* o`rnida ishlatadi.

日 *rì* – a) “quyosh”; b) “kun”; c) “har kun”; bu erda hisob so`z vazifasida kelgan.

“uning nomlari (ya`ni choyni): birinchisi 茶 *chá*, ikkinchisi 檟 *jiǎ*, uchinchisi 薺 *shè*, to`rtinchisi 茗 *míng*, beshinchisi 薺 *chuǎn* .”deb tarjima qilinadi. Biroq shoir ushbu jumlada berilgan so`zlar orqali choy nomlarini sanashdan tashqari hosilni ham nazarda tutgan. Qadimgi xitoyda choyni birinchi hosili 茶 *chá*, ikkinchi hosili 茗 *míng*, uchinchi hosili 薺 *shè*, to`rtinchi hosili 薺 *chuǎn* deb atalgan. Mana shu tariqa qadimdan bugungi kunga qadar choyni bir qancha nomlanish bosqichlari bo`lib o`tgan.

Dunyo miqyosida choy etishtirish va eksport qilish bo`yicha Xitoy Keniya hamda Shri-Lankadan so`ng uchinchi o`rinni egallaydi. Xitoy choylari turlari

¹⁸ <http://www.philcon.com.cn>

简明生物学词典. 上海辞书出版社出版, 1983. – 页 916

xilma-xilligi jihatdan u etakchi o`rindan joy olgan. Xitoy choylarini barglar yig`imi paytida o`tkaziladigan fermentlash va saqlashga ko`ra ko`k, qizil va qora choylarga ajratish mumkin. Bundan tashqari choy tarkibi va sifatiga qarab ham bir necha turlarga ajratiladi: ulun, puer va gulli choylar. Choy turlari juda katta masalaligini hisobga olgan holda mazkur bo`limda faqatgina ko`k choyga to`xtalinadi. Ularni turlari nihoyatda ko`p bo`lganligi uchun ajratish biroz mushkullik tug`dirgani va shu sababli bu terminlarni batafsil leksik-semantik tahlil qilib izoh berildi.

绿茶 *lǜchá* – “ko`k choy”. U quritilish mobaynida fermentlanmagan sof choy hisoblanadi. Ko`k choyni eng sara barglari bahorgi yomg`ir mavsumidan avval mart oyida yig`iladi. U fermentlanmagan bo`lganligi sababli o`zida mavjud bo`lgan barcha darmondori va foydali minerallarni saqlab qoladi. Ko`k choy me`da-ichak faoliyatini yaxshilab buyrak va jigardagi toksinlarni xaydaydi, moddalar almashinuvini maromida ushlab turishga katta xizmat qiladi. Bundan tashqari shamollashda, qon bosimini va xolesterinni miqdorini tushirishda samarali ta`sir ko`rsatadi. Saratonning bir qancha turlarini davolashda hamda oldini olishda yordam beradi.

Quyida xitoyning eng mashxur ko`k choylaridan bir nechtasini nomini leksik-semantik tahlil ostida ko`rib chiqildi. Xitoyda choy shifobaxsh giyoh sanalishidan tashqari muqaddas o`simlik hisoblanadi, shu sababli ham uni etishtirish, quritish, saqlash va damlash aholi orasida marosimga aylanib ketadi. Qadimdan choy nomlari kelib chiqishi bilan bog`liq bo`lgan bir qator afsonalar mavjud.

1. 龙井茶 *lóngjǐngchá*

龙 *lóng* – a) “ajdarxo”, b) “imperatorga tegishli bo`lgan narsa”;

井 *jǐng* – “quduq”;

龙井茶 *lóngjǐngchá* – “ajdarxo qudug`i” choyi deb tarjima qilinadi.

Ushbu choy o`z nomini Chejian provinsiyasining tog`li tumanlarida joylashgan qishloq nomidan olgan. Qadimda mazkur qishloq qudug`i

minerallarga boy boʻlganligi sababli yorugʻlikni sindira olish hususiyati bilan ajralib turar edi, yomgʻir yogʻgan paytda optic effektlar yuzaga kelib, ular aholi koʻziga xuddi afsonalarda keltirilgan ilohiy hayvon harakati timsolini eslatar edi. U moʻjizaviy ajdarxo hisoblanganligi sababli odamlar uning oldiga borib yomgʻir soʻrab iltijo qilishgan. U yuborgan yomgʻir yordamida muqaddas giyoh sanalmish choy etishtirilgan, shu tariqa bu nom kelib chiqqan.

2. 碧螺春茶 *biluo chuncha*

碧 *bì* – “och yashil rang, zumrad”;

螺 *luó* – a) “shilliqurt”; b) “vint, spiral”;

春 *chūn* – a) “bahor fasli”;

碧螺春茶 *bìluóchūnchá* – “bahorgi zumrad shilliqurt choyi” deb tarjima qilindi. Ushbu choy barglarining koʻrinishi buralgan boʻlib, shilliqurti eslatadi, shu tariqa mazkur nomni olgan. Choyning bunday turi Min davri oxiri Chin sulolasi davri boshlarida paydo boʻlgan. U Jiangsu provinsiyasida etishtirilib, yigʻimi juda mashaqqatli mehnat talab qiladi hamda betakror hushboʻy mazasi bilan ajralib turganligi sababli eng qimmatbaho choylar safiga kiradi.

3. 黄山毛峰茶 *huángshānmáo fēngchá*

黄 *huáng* – a) “sariq rang”; b) biron bir harakat amalga oshmaganligi, uddalay olmaslikni bildiradi.

山 *shān* – “togʻ”;

黄山 *huángshā* – “Huanshan togʻi”;

毛 *máo* - 1) a) “tuk, mex, soch”; b) “mogʻor, zamburugʻ”; c) “yoʻgʻon, ishlov berilmagan”; d) “taxminiylik”; e) “kichik, yosh”; f) “qadrsizlanish”; 2) a) “ehtiyodsizlik”; b) “daxshat, qoʻrqinch”; 3) xitoy tiyini 角 *jiǎo* ning ogʻzaki tildagi ekvivalenti.

峰 *fēng* – “togʻ choʻqqisi”;

黄山毛峰茶 *huángshān máofēng chá* – “Huanshan tog`ining tukli cho`qqisi” deb tarjima qilish mumkin, biroq bu choy fonetik o`qilishi, ya`ni Maofen nomi bilan dunyoga mashxur. Choy donachalarining ko`rinishi yassi tukchalarga o`xshab ketadi. Choy nomining etimologiyasi tashqi ko`rinishiga bog`liqligidan tashqari o`z afsonasiga ham borib taqaladi. Qadimda Huanshan tog`i etaklarida qari ovchi yashagan ekan, uni paxmoq maymunchasidan boshqa hech kimi yo`q ekan. Maymun insonlar kabi so`zlay olarkan hamda ovga hamrohlik qilar ekan. Kunlarning birida ovchi maymunchasi bilan tog`ning cho`qqisiga etkanda barglari oftob nurida jilov berib turgan choy daraxtini ko`rib qolib unga mahliyo bo`lib qilibdi. Shunda maymun : “bu charchoqni enguvchi shifobaxsh o`simlik, kimki uni damlamasini ichsa barcha darddan forig` bo`ladi” deb, daraxtga chiqib choy barglaridan terib tushibdi. Ovchi uni ichib kuchga to`libdi, bundan quvongan ovchi o`simlik nomini Maofen, ya`ni paxmoq maymunchasi sharafiga 毛 *máo*, tog` cho`qqisidan olganligi sababli 峰 *fēng* deb atagan ekan.

Tahlil so`ngida shuni aytish mumkinki, xitoy choy nomlari madaniyatga borib taqalishidan tashqari, uning etimologiyasi choyning tashqi ko`rinishiga, etishtirilgan joyiga hamda afsonalarga asoslanadi. Yuqorida ko`rib chiqilgan tahlil natijasida shunga amin bo`lindiki, choy qadimdan oily toifadagi ichimlik hisoblanishi bilan bir qatorda shifobaxsh damlama sifatida ham qo`llanilib kelingan. Mana shu jihatini nazarda tutgan holda choy bilan bog`liq bo`lgan so`zlarni farmakologik termin sifatida sanab o`tildi va bunda zamonaviy xitoy tilida muloqotdan chiqib ketgan eski terminlarga ko`p duch kelindi.

3. Xitoy “qizil” choyi nomlari bilan bog`liq terminlarning

leksik-semantik tahlili

Ushbu bo`limda xitoy choylarining yana bir turi “qizil choy”ga batafsil to`xtalib o`tiladi, uning shifobaxsh xususiyatlari ko`rsatilishi bilan bir qatorda qizil choy nomlarini leksik-semantik tahlil qilish orqali o`rganildi.

红茶 *hóngchá* – “qizil choy”. Xitoyda qizil deb nom olgan choy navi evropada qora deb atalishi kabi chalkashliklar qadim davrlarga borib taqaladi. Buning sababi evropaliklar mazkur choy navining quruq, hali damlanmagan holatdagi rangi bilan atashgan bo'lsa, xitoyliklar uni damlangandan so'ng beradigan damlamasini xuddi tong otayotgan vaqtdagi quyosh kabi qizarib chiqadigan rangiga o'xshatgan holda “qizil” deb atashgan. U 45-60% fermentlanish jarayonidan so'ng o'zining hushbo'y ta'miga ega bo'ladi.

Xitoy choylari shifobaxsh giyohlar safiga kirishi bejiz emas, qizil choy ham o'z o'rnida shifobaxsh xususiyatlarga ega. U o'zida karotin (vitamin A), tiamin (vitamin B1), riboflavin (B2), askorbin kislotasi (vitamin C) va yana boshqa darmondorilarni saqlash bilan bir qatorda aminokislotalar, minerallar hamda turli xildagi qand vapolifenollarga boy hisoblanadi. Qizil choy me'da hamda xazm qilish a'zolari mikroflorasini tozalashda, qon bosimini maromida saqlashda, qand va xolesterin miqdorini tushurishda, organizmdan toksin va shlaklarni chiqarishda, xattoki saraton to'qimalarini rivojlanishin to'xtatishda ham muhim omil bo'lib hizmat qiladi. Bunlardan tashqari qizil choyni mikroblarga qarshi xususiyati mavjudligi barchamizga ma'lum. Uning damlamasi ko'zdagi shish, qizarish hamda kon'yuktivitni davolashda samarali yordam ko'rsatadi.

Xitoyning butun dunyoga mashxur qizil choylaridan biri bu 祁门红茶 *qímén hóngchá* – Kimun qizil choyi hisoblanadi.

祁 *qí* – “belgi, gerb”;

门 *mén* – a) “eshik, darvoza”, b) “eshikcha, tuynuk”; c) “quluflamoq, ilmoq solmoq”; d) “maktab, guruh”; e) “mutaxassislik, yo'nalish” ma'nolariga ega.

祁门 *qímén* – “Kimun”. Mazkur so'z tarkibidagi ikkala component ma'nolarini o'zida saqlamay, boshqa tillarga fonetik o'zlashtirilgan holda tarjima qilinadi. Shu boisdan ham “Kimun” so'zi barcha tillarda o'zgarmagan ko'rinishda uchraydi.

Xitoyning Kimun choyi 1875 yilda kashf qilinib, evropada juda sevimli hisoblanadi. Uning o'tizdan ortiq turi mavjud bo'lib, 祁门 *qímén* nomi qizil choyning vatani hisoblanmish Anhui provinsiyasining Chimen qishlog'i nomi bilan bog'liq. hushbo'y iforga ega bo'lgan Kimun choyi orxideya, olxo'ri, olma kabi ta'mni ham o'zida mujassam etgan. Qiyuda Kimun choyining uch xil turi nomini leksik-semantik tahlil ostida o'rganildi, bular 祁门毛峰 *qímén máofēng*, 祁门新芽 *qímén xīnyá*, 祁门昊宇 *qímén hàoyǔ*.

1. 毛 *máo* – 1) a) “tuk, mex, soch”; b) “mog'or, zamburug'”; c) “yo'g'on, ishlov berilmagan”; d) “taxminiylik”; e) “kichik, yosh”; f) “qadrsizlanish”; 2) a) “ehtiyodsizlik”; b) “daxshat, qo'rqinch”; 3) xitoy tiyini 角 *jiǎo* ning og'zaki tildagi ekvivalenti. Barcha ma'nolar orasidan tahlil davomida “tuk” ma'nosi tanlab olindi;

峰 *fēng* – “tog' cho'qqisi”;

毛峰 *máofēng* – “tukli cho'qqi” deb tarjima qilindi;

祁门毛峰 *qímén máofēng* – “Kimun-tukli cho'qqi” deb o'zbek tilidagi ekvivalenti olindi, biroq mazkur birikma chet tillarga fonetik o'zlashgan holda, ya'ni “kimun-maofen” nomi bilan dovrug' qozongan. “Kimun-maofen”ning boshqa kimunlardan farqi shuki, odatda qizil choylar 5 daqiqa davomida damlansa, bu choy 7 daqiqa ushlanadi, ushbu jarayon unga yanada serjilo ta'm beradi.

2. 新 *xīn* – a) “yangi, barra”; b) “hozirgina, yana, dastlab”;

芽 *yá* – “maysa, kurtag,”;

新芽 *xīnyá* – “erta choy”;

祁门新芽 *qímén xīnyá* – “”deb tarjima qilindi. Buning asosiy sababi Kimun choyining bu turi choyning erta yig'imida terilib, eng sara barglaridan tayyorlanadi. Ushbu choyga ham fonetik o'zlashma ekvivalent sifatida “Kimun-sinya” deb atashimiz mumkin. Yana uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, boshqa qizil choylar singari achchiq ta'mi deyarli yoq.

3. 昊 hào – a) “juda katta, bahaybat, keng, oxiri yo`q”; b) “osmon, samo”;
 宇 yǔ – a) “borliq, olam, koinot”; b) “dunyo”;
 昊宇 hàoyǔ – “keng samo” deb tarjima qilindi;

祁门昊宇 qímén hàoyǔ – o`zbek tilidagi ekvivalenti sifatida “Kimun-keng samo” iborasi olindi. Yuqoridagi tahlil natijalariga ko`ra ushbu qizil choy turini ham fonetik o`zlashmasi berildi, ya`ni “Kimun-xaoyu”. “Kimun-xaoyu” barcha kimun choylari orasida eng sarasi hamda shifobaxsh xususiyatlarga boy hisoblanadi.

Xitoy qizil choylari nomlarining tahlil natijalari shuni ko`rsatadiki, choy nomlari semantik o`zlashtirishdan tashqari dunyo miqyosida ularni fonetik o`zlashmalari ham mavjud bo`lib, ular xaridorlarga ancha qulayliklar yaratadi. Tadqiqotga farmakologik jihatdan nazar tashlanadigan bo`lsa, ushbu choylar xitoyda dorivor giyohlar sanalib, juda ko`p kasalliklarga darmon bo`lishi yuqorida ko`rsatilib o`tiladi.

Uchinchi bob xulosasi

Uchinchi bob tadqiqot natijalari ko`ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xitoy dorilari asosan tabiiy dorivor moddalardan, ya`ni dorivor o`simliklar, xayvon to`qimalari hamda biologik va kimyoviy usullar yordamida olingan mineral moddalardan tayyorlanadi va salbiy holatlari deyarli kuzatilmasligi aniqlandi.

2. 11 asrda yozib qoldirilgan “shijin” she`rlar to`plamida eng dastlabki dorivor giyohlardan tayyorlangan dorilar haqida ma`lumotlar etib kelgan. Bundan tashqari “huandi neyjin” nomli tibbiy asarda xitoy farmakologiyasining nazariy asoslari bitilganligi aniqlandi.

3. Li Shizhenning 本草纲目 *běncǎo gāngmù* nomli dorishunoslik asarida 1892 tur dorivor o`simliklar va boshqa dorivor moddalar haqida batafsil ma`lumotlar ko`rsatilganligi aniqlandi.

4. 1977 yilda “xitoy farmakologiyasi katta ensiklopedik lugʻati” dunyo yuzini koʻrdi, unda xitoy dorishunosligiga tegishli boʻlgan 5767 xildan ortiq dori turlari yoritib berilgan.

5. Xitoy dorilari uchun besh xil maza ajratiladi – nordon, taxir, shirin, achchiq, shoʻr. Ularni qoʻllashda xavfsizlik va samaradorlikni taʼminlash maqsadida mazkur dorini qoʻllash usuli, qarshi koʻrsatmalarida keltirilgan maʼlumotlarni sinchkovlik bilan oʻrganish lozimligi aniqlandi.

6. Xitoy choyi va uning turlarini anglatadigan soʻzlarni farmakalogik termin sifatida oʻrganilib, bunda choyni xushboʻy ichimlik sifati bilangina chegaralanib qolmay, uni Xitoy dorishunosligida shifobaxt giyoh sifatida foydalanilishini nazarda tutgan holda bir necha Xitoy choyi bilan bogʻliq boʻlgan terminlarni leksik-semantik tahlil qilib oʻrganildi.

7. Qadimgi xitoyda 茗 *míng* – a) “choy daraxti novdasining kurtagi”, b) “choy” maʼnolarini bildirgan hamda 茶 *tú* va 標 *jiǎ* soʻzlaridan farqli oʻlaroq u bugungi kungacha Tayvan hamda Xitoyning ayrim viloyatlarida choy maʼnosida qoʻllanilishi aniqlandi.

8. Xitoy choylarini barglar yigʻimi paytida oʻtkaziladigan fermentlash va saqlashga koʻra koʻk, qizil va qora choylarga ajratish mumkinligi oʻrganildi. Bundan tashqari choy tarkibi va sifatiga qarab ham bir necha turlarga ajratiladi: ulun, puer va gulli choylar.

9. Xitoy koʻk choyi nomlari farmasevtik termin sifatida leksik-semantik tahlil qilib oʻrganishdan tashqari, ularni shifobaxsh xususiyatlari hamda kelib chiqish tarixi bilan ham yaqindan tanishib chiqildi.

10. Choy bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlarni farmakologik termin sifatida sanab oʻtildi va bunda zamonaviy xitoy tilida muloqotdan chiqib ketgan eski terminlarga koʻp duch kelinib, ularga izoh berib oʻrganildi.

11. Xitoy qizil choyi nomlari bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlar farmasevtik termin sifatida leksik-semantik tahlil ostida oʻrganilib, ularni dorivor xususiyatlari hamda oʻziga xos jihatlari aniqlandi.

12. Xitoy qizil choy nomlari semantik o`zlashtirishdan tashqari dunyo miqyosida ularni fonetik o`zlashmalari ham mavjud bo`lib, ular xaridorlarga ancha qulayliklar yaratadi. Tadqiqotga farmokologik jihatdan nazar tashlanadigan bo`lsa, ushbu choylar xitoyda dorivor giyohlar sanalib, juda ko`p kasalliklarga darmon bo`lishi aniqlandi.

XULOSA

Mazkur magistrlik dissertasiyasi “Xitoycha dori yo`riqnomalarida uchraydigan terminlarni tarjima qilish masalalari”ga bag`ishlangan bo`lib, ushbu mavzu xitoyshunoslikda birinchi bora o`rganilmoqda. Ish yoritilish jarayonida xitoyda ishlab chiqarilgan dori yo`riqnomalarida keltiriladigan so`zlarni farmotsevtik termin sifatidagi hususiyatlari, ularning yasalish modellari, so`z birikmasi vazifasidagi jihatlari, ularga o`zbek tilida munosib ekvivalent topish hamda farmatsevtik terminlar tarjimasiga qay tarzda yondoshish va tarjima qilish davomida yuzaga keladigan muammoli masalalarni hal qilishga harakat qilindi, bular natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xitoy tilida farmotsevtik va meditsinaga oid terminlar aynan xitoycha dori yo`riqnomalarida qay tartibda kelishi va ularning yasalishini keltirilgan bir necha dori ko`rsatmalari misolida o`rganildi. Dori ko`rsatmlarida bandlar nomlari tartib bo`yicha tarjima qilindi va tahlil olib borildi.

2. Dori yo`riqnomalarida uchraydigan va dori sifatiga tegishli bo`lgan ma`lumotlarni ifodalaydigan bandlarning nomlari nafaqat dori ko`rsatmalarida uchraydi, balki boshqa turli mahsulotlarga tegishli qaydnomalarda ham uchrab turadi. Shu sababdan dori qaydnomalarida beriladigan bandlar nomlari savdo-sotiq terminlariga tegishli deb belgilaganimiz maqsadga muvofiq bo`ladi.

3. Yuqorida keltirilgan xitoy dori nomlarini lingvistik tahlilidan shunday xulosaga keldikki, xitoy dori nomlarini tarjima qilishda yoki uni o`zbekcha ekvivalentini berishda dori nomida uchragan barcha so`zlarni ma`no jihatdan chuqur o`rganib, ularni mantiqan bir-biriga bog`lay olish lozim. Ko`rib turganimizdek, xitoy tilida dori nomlanishi boshqa tillardan tubdan farq qiladi, shunga ko`ra bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Va bu o`z o`rnida tarjimondan farmatsevtika, meditsina sohalari bo`yicha bilim va mahorat talab qiladi. Tajribada uchragan dori nomlarini tarjima qilish natijasida xitoy dori nomlariga ikki xil ekvivalent berishga muvoffaq bo`lindi: 1) dori tarkibini tashkil qilgan moddalarni nomini ketma-ket sanaldi; 2) dori nomining xitoycha

fonetik o'qilishini keltirildi. Birinchi usul o'zbek adabiy tili normalariga javob bermaganligi sababli uni qabul qilib bo'lmaydi, ikkinchi usul hozirgi kunda samarali usul hisoblanib, amalda keng qo'llanilishi aniqlandi.

4. Xitoyda ishlab chiqarilgan dori yo'riqnomalarining bandlari ichida tarjimonlarga qiyinchilik yaratadigan eng murakkab bandlaridan biri bu "tarkibiy qism" bandidir. Bu bandni tahlil qilib shunday xulosaga kelindiki, xitoyda ishlab chiqarilgan dorilarning ko'pchiligi har xil kimyoviy moddalardan mustasno holda tabiiy mahsulotlardan tarkib topadi. Shu kunga qadar hali farmatsevtik terminlar lug'ati mavjud emasligi sababli tarkibiy qismda uchraydigan ba'zi terminlarni tarjima qilish biroz mushkuldir. Georafik muhit ta'sirida xitoyda o'sadigan ayrim o'simliklar bizning sharoitimizda o'sganlari o'rtasida tafovut mavjud, shuni hisobga olgan holda o'simliklar nomini tarjima qilganimizda uning yonida tuzilishi haqida tavsifiy ma'lumotlarni ham keltirib o'tildi. Shu sababli terminda keltirilgan so'zlarning barcha ma'nolarini o'rganib chiqqan holda bitta umumiy ma'no olinadi. tadqiqotning oliy maqsadi dori yo'riqnomalaridagi "tarkibiy qism" bandining ahamiyatini va uni tarjima qilishni yolg'a qo'yishdan iborat.

5. Xitoy dori yo'riqnomalaridagi "ko'rinish va hususiyati" bandini tarjimaviy tahlilidan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, xitoy tili morfologik jihatdan juda boy til hisoblanadi, nafaqat dori-darmon yo'nalishi nuqtai nazaridan balki, umuman ilm-fan borasida hali o'rganilmagan qirralari ko'p. Xususan, xitoy farmatsevtika sohasidagi tarjima usulini ham o'ziga hos hususiyatlari mavjud ekanligini yuqorida ko'rib chiqildi. Bundan tashqari zamonaviy xitoy tili grammatikasidan chiqib ketgan qadimgi xitoy tilida uchraydigan so'zlar ham duch kelishi mumkin. Xuddi shu singari so'zlar zamonaviy xitoy tilida ham o'z ko'rinishini o'zgartirgan, ammo ma'nosini saqlab qolganlari ham bor.

6. Aksariyat lug'atlarda meditsina hamda farmatsevtikaga oid so'zlar mavjud bo'lmaganligi sababli tarjimaga tibbiy ma'lumotlarga tayanga holda yondoshishga harakat qilindi.

7. Tabiiy gilyohlardan tarkib topgan dorilarga ehtiyoj kuchaygani sari xitoy dorilariga boʻlgan talab ortib bormoqda, shunga koʻra dori yoʻriqnomalarini toʻgʻri va aniq tarjima qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ham shulardan iborat boʻlib, buni amaliyotga tadbiiq qilishga qaratilgan edi.

8. Qadimgi Sharq tabiiy fanlari hozirgi zamonaviy Evropa fanlarining asosi hamda poydevori sifatida butkul tan olinishi mumkin, faqat sharq tabobati oʻz davomiyligini, taʼsir kuchini saqlagan holda zamonaviy gʻarb meditsinasi bilan bir vaqtda rivojlanib kelmoqda. Bu borada farmakologiya sohasiga asos slogan bir qancha xitoy olimlari haqida maʼlumotlar keltirildi.

9. Xitoy tabobati hamda dorishunosligida oʻziga xos boʻlgan nazariyalar tizimi va davolash usullari mavjud boʻlib, u xitoy falsafasiga asoslanadi. Odam organizmi hamda uning tabiat bilan uygʻunlashishidan kelib chiqqan holda “toʻrt tekshirish usuli” asnosida tashxislash, bundan tashqari 阴 va 阳, pulsni tekshirish usullaridan foydalanib tashxis qoʻyib davolash muolajalari olib borilishi oʻrganilib chiqildi. Xitoy meditsina va farmatsevtikasi juda keng mazmunga ega, mazkur mavzu haqida qisqacha umumiy maʼlumotlar berishni maqsad qilib olinganligi sababli faqatgina bir necha asosiy qismlari haqida toʻxtalib oʻtildi halos.

Insoniyat koʻz oʻngida er yuzasidagi “ona tabiat aks–sadosi”ning hayqirigʻi tabora baland boʻlib bormoqda, bu fikrimizning maʼnosi shuki, biz tabiatga qanchalik koʻp murojaat qilganimiz sari tabiat ham bizga oʻz tarovatini namoyish qilaveradi. Avloddan avlodga oʻtib kelayotgan xitoy dorivor oʻsimliklaridan tayyorlanadigan dorilar asta–sekin ayrim zararli taʼsirlarga ega boʻlgan kimyoviy dorilarning oʻrnini egallashi xalqaro talab hisoblanmoqda. Sharq hamda gʻarb tabobatining birlashishi ham bir qancha afzalliklarni namoyon qildi.

Xitoy tabobati hamda dorishunosligi doirasi juda keng va chuqur, biroq qunt va tirishqoqlik bilan oʻqib oʻrganish mumkin, juda koʻp xitoylik yoshlar,

yana bir qancha chet elliklar shu sohani puxta o'zlashtirib, tajriba va amaliyotga ega bo'lib, oliy toifali xitoy meditsinasi vrachlari darajalarigacha ko'tarilganlar.

Mazkur ishimizda xitoy tabobati hamda dorishunosligi haqida umumiy ma'lumotlar berishga harakat qildik, ishonamizki ushbu ish biz izlanishlar olib borayotgan mavzuga yanada oydinlik kiritadi hamda o'quvchilarda xitoy dorishunosligi haqida tasavvur hosil qilishga oz bo'lsada ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Prezident Karimov I.A. asarlari:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. –Б. 185
2. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2000 й.
3. Каримов И.А. Дальнейшее углубление демократических реформ и формирование гражданского общества – основной критерий развития нашей страны. Т. Т.: Узбекистан, 2011г.

O`zbek tilidagi adabiyotlar:

4. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Т.: Sharq, 2010 у.
5. Дониёров Р. Ўзбек тилининг илмий – техникавий терминлари тарихидан. – Т.: Фан, 1973 й.
6. Каримов А.А. Хитой тилидаги ҳисоб сўзлар (лексик–семантик, структурал ва функционал таҳлил). – Т., 2003. – 119 б.
7. Носирова С.А. Ҳозирги замон хитой тили дипломатик терминларининг лексик – семантик ва структур таҳлили. ф.ф.н. дис. автореферати. – Т., 2008 й.
8. Хашимова С.А. Ҳозирги хитой тилида редупликация. ф.ф.н. дис. автореферати. – Т., 2009 й.
9. Ҳожиёв А., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1980, б. 129
10. Ҳожиёв А., Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1985, Б, 144
11. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (1–5). – Т.: Давлат илмий, 2006 й.
12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси (1–12 ж.). – Т.: Давлат илмий, 2000 й.
13. Ҳожиёв А., Дониёров Х. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1985 й.

14. Каримова С.А. Хитойда ишлаб чиқарилган дори кўрсатмаларини ўзбек тилига ўгириш тажрибасидан // “Хитойшуносликнинг долзарб масалалари” илмий–амалий конференциясининг материаллари.– Т., 2009. Б.81
15. Karimova S.A. Xitoy tabobati va dorishunosligi haqida // “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari” Respublika ilmiy–amaliy konferensiyasining materiallari. – Т., 2010. – В. 142
16. Karimova S.A. Xitoy dorilarining tarkibiy qismida uchraydigan soʻzlar tarjimasida // Iqtidorli talabalar ilmiy toʻplami. – Т., 2010. – В.31.
17. Karimova S.A. Xitoycha dori koʻrsatmalarida 功能主治 *gōngnéng zhǔzhì* punktini tarjima qilish hususiyatlari // Xitoyshunos talabalar ilmiy toʻplami. – Т., 2011. – В.64
18. Karimova S.A. Xitoy dori koʻrsatmalarida dorining koʻrinish va hususiyatini bildiradegan soʻzlar tarjimasiga doir // Xitoyshunos talabalar ilmiy toʻplami. – Т., 2010. – В.19
19. Karimova S.A. Xitoy dori nomlarini oʻzbek tiliga tarjima qilish masalalari // Iqtidorli yoshlar ilmiy toʻplami. – Т., 2010. – В.37
- 20 Karimova S.A. Xitoycha dori koʻrsatmalarida qoʻllanilish usuli va dozalash bn bogʻliq terminlarni leksik-semantik tahlili // “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari” ilmiy–amaliy konferensiyasining materiallari. – Т., 2011. – В.91
21. Axmedova(Karimova) S.A. Xitoy farmakologiyasi tarixidan // “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari” ilmiy–amaliy konferensiyasining materiallari. – Т., 2012. – В.188

Rus tilidagi adabiyotlar:

22. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1968г.
23. Горелов В.И. Грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1974 г.
24. Горелов В. И. Лексикология китайского языка. – М.: Просвещение, 1984. – С.11

25. Горелов В. И. Теоретическая грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1989г.
26. Драгунов А. А. Исследования по грамматике современного китайского языка. 1 часть. – М.: Академия наук, 1952. – С.231
27. Драгунов А. А. Грамматическая система современного китайского разговорного языка. – Л.: Ленинградский университет, 1962. – 270 с.
28. Каримов А. А. Сопоставление китайских и узбекских морфем по количеству слогов // VI Всесоюзная школа молодых востоковедов. Тезисы. Том III. Языкознание. – М.: Наука, 1986. – С.81-83
29. Кодухов В. И. Общее языкознание. – М.: Высшая школа, 1974. – С.302
30. Коротков Н. Н. Основные особенности морфологического строя китайского языка. – М.: Наука, 1968. – С.399
31. Курдюмов В.А. Курс китайского языка. Теоретическая грамматика. – М.: Цитадель–трейд, 2005г.
32. Семенас А. Л. Лексика китайского языка. – М.: Муравей, 2000. – С.39
33. Семенас А. Л. Лексикология современного китайского языка. – М.: Наука, 1992г.
34. Солнцева Н. В. Проблемы типологии изолирующих языков. – М.: Наука, 1985. – 253 с.
35. Солнцева Н. В., Солнцев В. М. Теоретическая грамматика современного китайского языка (проблмы морфологии). – М.: Военные инсиитут, 1978. – С.152
36. Фролова О. П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. – Н.: Наука, 1981. – С.32-36
37. Русско – узбекский словарь. –М., 1954г.
38. Советский энциклопедический словарь. – М., 1985г.

Xitoy tilidagi adabiyotlar:

39. 家庭常见病医疗保健. 中医古籍出版社, 北京, 2006 年.

40. 中国传统医药. 五洲传播出版社, 北京, 2006 年.
41. 古代汉语语法, 沈阳, 1984 年.
42. 新编小学生字典, 北京, 1987 年.
43. 辞海. 上海辞书出版社, 上海, 1979 年.
44. 汉俄词典. 商务印书馆, 北京, 2006 年.
45. 汉俄科技大词典. 黑龙江科学技术出版社, 哈尔滨, 1992 年.
46. 现代汉语词典. 商务印书馆, 北京, 2004 年.
47. 简明生物学词典. 上海辞书出版社出版, 1983 年.

Internet sahifalar:

48. www.blcup.com
49. www.philology.ru
50. www.russian.news.cn
51. www.china-pictorial.com.cn
52. www.bjreview.com
53. www.yuyan.cn
54. www.wikipedia.org.cn
55. www.russian.dbw.cn
56. www.tea-mail.ru
57. www.chinese-tea.uk
58. www.chabei.cn